

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



<https://innoworld.net>



+998945668868

ILMIY JURNAL

 JOURNALS
MASTER LIST

 INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
SERIAL
INTERDISCIPLINARY

 doi

 zenodo

 OpenAIRE

 Academic
Resource
Index
ResearchBib

 Google Scholar

 open access.nl



INNOVATIVE WORLD

INNOVATION TALABALAR
AXBOROTNOMASI

Volume 2, Issue 1
2025

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Mas'ul kotib

Nashrga tayyorlovchi

Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li – Tahrirlovchi
Raxmonov Akmaljon Axmadjonovich – Texnik muharrir

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

INNOVATIVE
WORLD

ПРИМЕНЕНИЕ ЛИНЕЙНОЙ АЛГЕБРЫ В БИОЛОГИИ

Бахриддина Азиза

Студент Джизакского филиала Национального университета

Аннотация: Линейная алгебра играет важную роль в биологии для моделирования и анализа биологических процессов. Методы матричной алгебры и векторного анализа применяются в биоинформатике, генетике, популяционной динамике и нейробиологии. Например, матрицы используются для представления генетических данных, сетей взаимодействий белков и метаболических путей. Системы линейных уравнений и собственные значения помогают моделировать рост популяций и распространение эпидемий. Эти методы обеспечивают точность и эффективность при анализе больших объемов биологических данных.

Ключевые слова: Линейная алгебра, биоинформатика, популяционная динамика, генетика, матричная алгебра, собственные значения, моделирование, анализ данных.

Abstract: Linear algebra plays a significant role in biology for modeling and analyzing biological processes. Methods of matrix algebra and vector analysis are applied in bioinformatics, genetics, population dynamics, and neurobiology. For example, matrices are used to represent genetic data, protein interaction networks, and metabolic pathways. Systems of linear equations and eigenvalues help in modeling population growth and the spread of epidemics. These methods provide accuracy and efficiency in analyzing large-scale biological data.

Keywords: Linear algebra, bioinformatics, population dynamics, genetics, matrix algebra, eigenvalues, modeling, data analysis.

Линейная алгебра является важной частью математики, которая находит широкое применение в различных областях науки, в том числе и в биологии. Несмотря на то, что биология традиционно ассоциируется с изучением живых организмов и их процессов, математические методы, в частности линейная алгебра, позволяют эффективно анализировать и моделировать биологические системы. В этой статье рассмотрены основные области биологии, где линейная алгебра используется для решения различных задач.

1. Моделирование популяций

Один из ярких примеров применения линейной алгебры в биологии — это моделирование динамики популяций. Например, при моделировании изменений численности популяции с использованием системы дифференциальных уравнений или разностных уравнений

можно применять матрицы для анализа взаимодействий между различными видами.

Простейшая модель для двух видов в экосистеме может быть представлена в виде системы линейных уравнений:

$$\begin{pmatrix} \frac{dN_1}{dt} \\ \frac{dN_2}{dt} \end{pmatrix} = A \cdot \begin{pmatrix} N_1 \\ N_2 \end{pmatrix}$$

Здесь N_1 и N_2 — численности двух видов, а A — матрица, элементы которой описывают взаимодействия между видами (например, коэффициенты размножения и смертности). Таким образом, линейная алгебра позволяет моделировать и прогнозировать поведение популяций на основе взаимодействий между ними.

2. Генетика и анализ данных

В генетике линейная алгебра используется для анализа больших объемов данных, например, при исследовании последовательностей ДНК. Матрицы и векторы позволяют эффективно работать с данными о генах, их экспрессии, а также анализировать наследственные заболевания.

Пример: Когда необходимо провести анализ экспрессии генов, часто используются матрицы, где строки представляют образцы (например, ткани или клетки), а столбцы — гены. Линейная алгебра помогает в обработке этих данных с использованием методов главных компонент (PCA) и кластеризации для выделения скрытых закономерностей в экспрессии генов. Это используется в биоинформатике для классификации клеток, например, в исследованиях рака.

3. Сетевые модели и экология

Сетевые модели экосистем часто описываются с использованием матриц смежности и матриц переходов. Например, в теории экосистем, где изучаются пищевые цепи и взаимодействия между различными видами, можно построить граф, где вершины будут представлять виды, а ребра — взаимодействия между ними. Линейная алгебра используется для анализа этих сетей, например, для поиска устойчивости экосистем, или для оценки изменения состояния экосистемы при нарушениях.

4. Физиология и нейробиология

В нейробиологии линейная алгебра также находит широкое применение. Мозг и нервная система функционируют через сложные сети нейронов, и линейные системы, такие как матрицы весов в нейронных сетях, являются основой для анализа их работы.

Простейшая модель нейронной сети может быть представлена как линейная трансформация входных сигналов в выходные с использованием матрицы весов. Например, в многослойных

перцептронах (тип нейронных сетей) входные данные проходят через несколько слоев, где каждый слой может быть описан как операция умножения на матрицу весов. Это также используется в исследовании процессов обучения, как в биологических нейронных сетях, так и в искусственных нейронных сетях.

5. Модели распространения заболеваний

Линейная алгебра используется для моделирования распространения инфекционных заболеваний в популяции. Например, модель СИР (Susceptible-Infected-Recovered) может быть записана в виде системы дифференциальных уравнений или с помощью матриц, которые описывают переходы между состояниями. В этой модели используются матрицы для анализа воздействия факторов, таких как скорость передачи инфекции и вероятность выздоровления.

Для более сложных моделей, которые учитывают взаимодействия между несколькими группами населения, также могут быть использованы методы линейной алгебры для оценки эффективности мероприятий по контролю заболеваний, например, вакцинации.

6. Методы кластеризации и машинное обучение

В биологии часто используется машинное обучение для анализа больших наборов данных, таких как данные о генетических маркерах, фенотипах или биологических показателях. Линейная алгебра в таких методах помогает проводить кластеризацию и анализировать высокоразмерные данные с помощью методов, таких как методы главных компонент (PCA), линейные регрессии и другие алгоритмы, основанные на матричных операциях.

Заключение

Линейная алгебра является мощным инструментом для решения различных биологических задач, от моделирования популяций до анализа генетических данных и нейробиологических сетей. Использование матриц, векторов и линейных систем позволяет биологам строить точные и эффективные модели, которые помогают лучше понять сложные биологические процессы и предсказать поведение биологических систем. Технологии, такие как машинное обучение и биоинформатика, также активно используют методы линейной алгебры для работы с большими объемами биологических данных.

Использованные литературы

1. Sadoqat, Sharipova. "Ravshan Do'stov and Bahtiyor Po'filatov." ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИКТ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ.". Журнал математики и информатики 2 (2022).
2. Шарипова, С. (2022). Matematika fanlarini oqitishda innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденций: решения и

перспективы, 1(1), 352– 355. извлечено от
<https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5090>

3. Fazliddinovna S. S. et al. KARRALI INTEGRALLARNI HISOBBLASHNING GEOMETRIK USULI //Conferencea. – 2022. – С. 76-79.
4. Sadoqat, Sharipova. "METHODS FOR SOLVING PARAMETRIC EQUATIONS AND INEQUALITIES." PEDAGOGS jurnalı 10.2 (2022): 210-221.
5. Бахриддинова А. и др. ОДНОВРЕМЕННОЕ ПРИВЕДЕНИЕ ДВУХ КВАДРАТИЧНЫХ ФОРМ К КАНОНИЧЕСКОМУ ВИДУ //ЛУЧШАЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ РАБОТА 2024: сборник статей. – 2024. – С. 6.
6. Шарипова С. Ф., Бахриддинова А. ПРИМЕНЕНИЕ СКАЛЯРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ ВЕКТОРОВ ДЛЯ РЕШЕНИЯ УРАВНЕНИЙ И СИСТЕМ //Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. – 2024. – Т. 6. – №. 2. – С. 175-185.
7. Бахриддинова А. и др. ЗАДАЧИ НА ПРОЕКТИРОВАНИЕ ВЕКТОРА НА ПОДПРОСТРАНСТВА //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 8-12.



KULOLCHILIK-MILLIY MADANIYAT KO'ZGUSI**OBULOVA MAFTUNAOY OBID QIZI**

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Amaliy san'at fakulteti; Badiiy kulolchilik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola amaliy san'atning eng qadimgi turlaridan biri "Kulolchilik" haqida bo'lib, u ilk bor qayerlarda rivoj topgaligi to'g'risida keltirib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR: Amaliy san'at, kulolchilik, naqsh turlari, sirlangan va sirlamagan kulolchilik.

Dunyo bo'ylab san'at turlari katta ahamiyat kasb etishi hech birimizga sir emas. Shu jumladan, san'at turlari deganda tasviriy san'at, amaliy san'at, teatr, musiqa,raqs va hokazolar tushuniladi. Bu san'at turlari butun olamning har bir joyida uchraydi. San'atning eng qadimdan rivojlanib kelayotgan, katta ahamiyat kasb etayotgan va maishiy hayotimizda ham alohida o'rinn tutayotgan san'at turi bu amaliy san'atdir. Bir so'z bilan aytganda, amaliy san'at o'zining jimjimadorligi, biz insonlar uchun kundalik hayotda asq otishi va shuningdek yasalishi doimo hayratga solgan. Qadimdan ayollarni o'ziga jalg etgan amaliy san'atning yana bir o'zgacha turi bu zargarlik buyumlari bilan boshqa san'at turlaridan anchagina ajralib turadi.



Amaliy san'at turlariga asosan; kulochilik, zargarlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, naqqoshlik va boshqalar kiradi. O'zbekistonda eng qadimdan rivojlanib kelgan san'at turi bu kulolchilik hisoblanadi. Kulolchilik nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo bo'yicha eng qadimdan rivojlanib kelgan san'at turidir. Asosan, undagi sir-asrorlar, o'zgacha uslub insonni o'ziga jalg etish xususiyatiga ega. Uning yana bir o'ziga xosligi shundaki, u sirlangan hamda sirlanmagan kulollikka bo'linadi. VIII asr oxiri, IX asr boshlarida Movarounnahr hududi hisoblangan Buxoro, Farg'ona va Chochning markazlarida sirlangan buyumlar keng tarqalgan. Bu davrda kulolchilik naqshlari asosan, geometrik (grix), o'simliksimon (islimiyl) va arab yozuvlari (kalligrafik) bilan bezatiladi. Hozirgi davr kulolchiliga nazar tashlasak, har bir viloyatning boshqa viloyatlardan ajralib turuvchi uslub va naqshlari bor.

Bunga Farg'ona hududidagi G'urumsaroyda rivojlangan kulolchilik va Shahrисabz kulolchilik uslublari bir-biridan keskin farq qilishi misol bo'la oladi. Farg'onaning Rishton kulolchiligi naqshlari juda boy bo'lib, unda handasaviy va islimiy naqshlar, ramziy belgilar, buyum tasvirlari, hayvonlar va odamlar tasviri chizilgan, bu yerda 1970-1980-yillar oralig'ida uch usta M.Hakimov, M.Turopov, S.Hakimov ishlagan va hozirgi kunga kelib, G'urumsaroy kulolchilik san'atini shu ustalarning shogirdlari olib borishadi. Shuningdek, Shahrисabz kulolchiligi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. G'ijduvon, Kattaqo'g'on va Toshkent kulolchiligi ham shular jumlasidandir. Buyumlarning ajralib turishining asosiy sababi yorqin, erkin va iliq rangtasvirli suratlari bilan bezatishlaridadir.

Xulosa qilib aytganda, amaliy san'atning barcha turlari shuningdek, kulolchilik bugungi kunga kelib ham o'z jozibasini yo'qotmadi. Nafaqat o'zbeklar, balki chet eldan tashrif buyurayotgan sayyoхlarimiz e'tiborini tortgan ushbu san'at turi yanada ravnaq topmoqda. Mustaqillik yillaridan boshlab kulolchilik turida ancha o'zgarishlar boshlandi va bu kulol ustalari uchun quvonchli yangilik bo'ldi. Shundan so'ng Xalqaro festivallar va ko'rlik tanlovlarda O'zbekiston kulolchilik ustalari keng miqyosda qatnashishni boshlashdi. Shuni aytib o'tish joizki, men ham amaliy san'atning ushbu yo'nalishida tahsil olar ekanman, kulolchilikning hayotimizda qanchalar muhim ekanini tushunib yetish bilan birgalikda uning sir-asrorlarini o'rganib bormoqdaman.

Adabiyotlar

1. Sadoqat, Sharipova. "Ravshan Do'stov and Bahtiyor Po'filatov." ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИКТ В ПРЕПОДАВАНИИ МАТЕМАТИКИ."." Журнал математики и информатики 2 (2022).
2. Шарипова, С. (2022). Matematika fanlarini oqitishda innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденций: решения и перспективы, 1(1), 352– 355. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zitmrt/article/view/5090>
3. Fazliddinovna S. S. et al. KARRALI INTEGRALLARNI HISOBBLASHNING GEOMETRIK USULI //Conferencea. – 2022. – C. 76-79.
4. Sadoqat, Sharipova. "METHODS FOR SOLVING PARAMETRIC EQUATIONS AND INEQUALITIES." PEDAGOGS журнали 10.2 (2022): 210-221.
5. Бахриддина А. и др. ОДНОВРЕМЕННОЕ ПРИВЕДЕНИЕ ДВУХ КВАДРАТИЧНЫХ ФОРМ К КАНОНИЧЕСКОМУ ВИДУ //ЛУЧШАЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ РАБОТА 2024: сборник статей. – 2024. – С. 6.

Badiiy adabiyotda sevgi maktublari

Murotova Ismigul Bobomirzayevna

Buxoro davalat universiteti

Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

2-bosqich magistranti

Sevgi- insonning eng pok tuyg'ularidan biridir.Inson Allohdan Taoladan keyin uning qullaridan biriga oshiq bo'ladi. Oshiqlik insonni ming kuya soladi. Qalbida iliq tuyg'ularni jonlantiradi,o'stiradi.Zeroki, "Sevgi fasllar almashinuviga bo'ysunmaydigan va gullab yashnaydigan tanho guldir" degan edi Antuan de Sent Ekzyuperi.Va inson o'z ishqini yoriga izhor qilishdardilidagilarni aytishda ko'pincha maktublardan foydalanadi. Negaki inson yuzma-yuz bo'lganda ichidagilarni toqliq aytolmay qolishi mumkin. Badiiy adabiyotda ham sevgi maktublari qahramonlarning ichki his tuyg'ularini samiliy izhorlarini shirin so'zlarini tashuvchi vosita sifatida ko'rildi. Oshiq-ma'shuqning bir-birlariga maktub yo'llashi mumtoz adabiyotda keng tarqalgan an'ana. Ishqiy dostonlarning deyarlik barchasida bu holni ko'ramiz. Bu maktublar romantik bir ruh, shoirona bir ohang, hassos bir muhabbat tuyg'ulariga yo'g'rilgan bo'ladiki, bu an'anani biz Shirinning Farhodga, Laylining Majnunga yo'llagan maktublarida ham ko'ramiz. "Bu maktublar buyuk shoir tomonidan katta mahorat bilan yaratilgan, chuqur lirizmi, realistik kuchi bilan ajralib turadi. Masalan, Layli sevgilisiga maktub bitar ekan, Navfalning qiziga unashtirilish munosabati bilan Majnunga ta'namalomat yog'dirishdan o'zini tiya olmaydi: Yovar sanga haq taborak o'lsun, Yod ayla gahi bu xastani ham. Bu xayr ishing muborak o'lsun. Insofg'a ham kanora tutma, Bo'lsang necha oning ila xurram, Bizni dag'i bir yo'li unutma".

Asarlarida ezgulikni, insoniylikni, vafo-sadoqat va sevgi-muhabbat yuksak tarannum etgan buyuk shoir, mutafakkir, alloma mir Alisher Navoiyning "Xamsa"sidan o'rinn olgan "Layli va Majnun" dostonida tasodifan Majnun tuyada xat tashuvchini uchratib qoladi va undan Layli haqida so'rasa, u: "Uning ota-onalari bu yurtni tashlab yuz chaqirim nariga ko'chib ketishgan", deya javob beradi. Majnun undan Layliga o'zining salomini yetkazishni iltimos qiladi. Xat tashuvchi "Jonim bilan", deya uning iltimosini qabul qiladi. Lekin Majnun so'zlay boshlaganida uning gapi uzoq, juda ham uzoq vaqtga cho'zilib ketadi. Uning sofkilligi xat tashuvchining ko'nglini ochadi va hayajonga soladi. Majnun tuyaning yonida yurib ketayotgan bo'lsa-da va o'zining uzoq yo'lida yaxshi hamroh bo'lsa-da, tuyakash unga rahmi kelib, "Sen o'z maktubingni

menga bayon qila borib 10 mil masofani o'tib qo'yding. Men uni Layliga yetkazishim uchun qancha vaqt sarflashim kerak bo'ladi bilasanmi? Bor yo'lingdan qolma, men naiki kerak bo'lsa, barini bajo keltiraman", deya murojaat qiladi. Shunda Majnun orqaga buriladi, lekin yuz odim ham yurmasdan qaytadan xat tashuvchiga yetib olib "Ey, mening mehribon va marhamatli do'stim, Layliga yetkazishing uchun senga yana bir necha og'iz so'zlarimni aytish yodimdan ko'tarilibdi", deya o'zining sevgi maktubini so'zları bilan davom etirib yana o'n mil masofa o'tib ketganiniyam sezmay qolibdi..

Masalan "O'tkan kunlar" romanida o'n yettida maktub bo'lsa, deyarli yarmi sevgi maktublari. Romanda maktub syujetning muhim damlarida hal qiluvchi vosita o'laroq maydonga chiqadi. Asarda uchraydigan ishqiy mavzudagi maktub ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma'lum. Chunki, unda badiiy estetik saviyasi va uslubiy bo'yoqdor so'zlardan foydalanganligidir. Otabek va Kumushning bir-biriga yo'llagan maktublaridir. Bu maktublarga nazar tashlasak sevgi-muhabbat hidi keladi. Sof samimi tuyg'ular joy olgan. Go'yoki Qodiriylor sevgi borasidagi fikrlarini shu matublarga joylagan deb o'ylab qoladi kishi. Masalan, Kumushning Otabekka yozgan maktublaridan birida "*Yusuf savdosida beqaror Zulayho otidan, Qays ishqida yig'lagan Layli ismidan-sizga boshimdagi sochlarimning tuklaricha behad salom*". Jumlaning go'zalligi hazilmi. Naqadar ajoyib o'xshatish. O'sha og'ir davrlarda bu kitobda mumtoz adabiyot qahramonlarining o'rinni olishi tahsinga sazovor. Bu maktub Kumush bilan Otabekning hijron kunlarida, ya'ni Homidning Otabek nomidan Kumushga "yo'lg'on taloqxati" bergandan keyin qilmishlari yuzaga chiqqanidan so'ng Kumush tomonidan Otabekka "uzrxati" sifatida yozilgan. Oradan qancha vaqt o'tgan. Albatta, Kumushimiz o'z jufti halolini sog'inganligini "*sochlarimning tuklaricha*" deb bildirib qo'ymoqda. Kumush shu maktubida kundoshlikka roziliginini bildiradi. Sevgan insoni uchun hamma narsaga tayyor ekanligini bildiradi. O'ylab ko'radigan bo'lsak Kumush obro'li oilaning yolg'iz qizi, husnda tengsiz. Agar u xohlasa Otabekdan ham afzalroq yigitga turmushga chiqishi mumkin edi. Ammo Kumush haqiqiy bir ishqqa duchor bo'lgan edi. Sevgining kuchi bilan kundoshlikka ham rozi. Otabegini ko'rib tursa bas. Kumushga nisbatan „Mehrobdan chayon" romani qahramoni Ra'no ancha dadil, pishiq, puxta, ekanligi uning maktublaridan ham namoyon bo'ladi. Ra'no mudarrisning qizi bo'lgani, hovlilarida bolalar o'qitilgani, uylariga har xil odamlar kelib turgani bosib Kumushga nisbatan ancha ziyrak, u saroy mirzalarini xasad o'tida kuydirgan, Anvardek zukko yigitni ham fikr bahsida yengadi. Nafaqat fikr bahsida balki hayot mamot hal

bo'layotgan kezlarda o'zining jasorati bilan ham uni qoyil qoldiradi. Uchrashish ne chog'lik tadbirdsizlik noma'qulchilik bo'lmasin, Ra'nuning „men bilan oxirgi marota vidolashingiz, siz nash'unamo qilgan joyda meni halokat kutadur" jumlesi ham fikrimizning isbotidir. Abdulla Qodiriy o'z romanlarida maktublarni qahramonning dil oynasi sifatida ko'rsatgan va hali zamongacha kitobxonlar qalbidan joy olib kelmoqda.

“... 23-avgust.

Mendan oldin partadoshim Sarvinoz telefonimga qarab:

– Bonu, Olmosingdan xat keldi! – deb suyunchiladi.

Quloqlarimga ishonmay, uning qo'lidan telefonni olib, beixtiyor ovoz chiqarib o'qidim: “Asal! Sizning tug'ilgan kuningiz mening baxtim tavallud topgan kundir. Tun bo'yи munosib tuhfa qidirdim, ko'z o'ngimdan dunyoning bor durri akbarlari, la'l-u zabarjadlari, oltin-u kumushlari... o'tdi. Nihoyada, Siz uchun eng arzimas, men uchun yakka-yu yagona bo'lgan... jonimni hadya qilishga qaror qildim. Bu – yo'l chetida yotgan oddiy tosh qatori beqadr bo'lsada, Sizning barmoqlaringizda Ko'hinur bo'lib jilo topishiga zarra gumonim yo'q. Shu tosh – Olmos butunlay sizniki:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma!

Qizlarning qiyqiriq aralash tabriklaridan quloqqinam qomatga keldi. Eh-ye, tug'ilgan kunda bundan ham ortiq sovg'a, bundan ham otashin tabrik bo'lishi mumkinmi? Yettinchi osmonga uchib ketdim: “Assalomu alaykum! Rahmat e'tibor, hurmat va tabrik-she'r uchun, o'zingizga ham Juma ayyomi muborak bo'lsin”, deb xat yubordim. “Bu o'zbek filologiyasida o'qiydigan tolibaning javobi emas”, degan noma qaytdi. Sal o'tib qo'ng'iroq qilib yana qutladi. Peshindan keyin universitetga kelishini aytib, “Ungacha SMSimga javob kutaman”, deb ta'kidladi.

Chiroyli she'riy javob topish maqsadida kursdoshlarning yon daftari-yu telefon xotirasini titkilab chiqdik. Va nihoyat hammamizga bir she'r ma'qul bo'ldi:

O, ilk muhabbatim, iliq muhabbat,
Totli tuyg'ularga to'liq muhabbat!
Bahor quyoshiday issiq bo'lgin-u,
Bahor havosiday o'zgarma faqat!..”

Kitobxонни Bonu va uning dugonalari bilan birga quvontirgan ushbu nomalar Iqbol Mirzoning nasrdagi ilk ijod namunasi bo'lgan “Bonu” romanidan olingan.Bu roamda Bonu bir insonni chin qalbidan sevib qoladi. Sevganidan maktub kelganda yuragi boshqacha uradi.His-tuyg'ular uni

qamrab oladi.Ammo sevgan insonidan kelgan zarba uni butkul hayotdan sovutadi.

Xulosa. Maktublarning yangi o'zbek nasridagi ahamiyati juda katta. U asarlarda salmoqli vazifa bajaradi. Har bir maktub yelkasiga alohida vazifa yuklatilgandek, syujetda ayricha o'rinni egallaydi. Yangi o'zbek nasrida maktublar ahamiyatini O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", "Ikki eshik orasi"; Iqbol Mirzoning "Bonu", Javlon Jovliyevning "Stalinga maktublar" asarlaridagi maktublar misolida ko'rdik. Ulardagi kompozitsion qurilishlar, insoniy tuyg'ular aksi, mazmunan syujet bilan aloqadorligini ko'rish mumkin.Qahramonlarning ruhiy va ichki kechinmalari, fikr-mulohazalari maktublarda shunday mohirona tasvirlanganki, ular asar syujetidan chiqib ketmaydi va xalal bermaydi,balki boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qo'chqorova M. Maktublar-qalb ko'zgusi./ Jahon adabiyoti. 2009, 11-son.
2. Куронов, Д.Мамажонов, З., Шералиева, М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 134 б.
3. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. – 104 б.
4. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Т., 2016. – б.
5. Homidiy H. Abdullayeva Sh. Ibrohimova S. Toshkent:O'qituvchi. 1967-b.
6. Iqbol Mirzo. Bonu. – Т.: Sharq nashriyoti, 2018. – Б.45.Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. – Т.: "Yangi nashr", 2010. 263-б
7. Axmedova. Sh. Adabiyot tanqidchiligi janrlari. - Т.: "Fan", 2006.III.
8. Adabiyotshunoslik nazariyasi. -Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. -136 б.
9. Abdurahmonova M. Abdulla Qodiriyning psixologik tasvir mahorati. Filol.fan. nomzod.diss.-T, 1977.
10. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. O'zbeklar turmushidan tarixiy ro'mon. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2011. – б.

O'ZBEKISTON HUNARMANDLAR UYUSHMASINING KASHTACHILIKDAGI O'RNI: "BUXORO VA SHAHRISABZ KASHTACHILIK SAN'ATI MISOLIDA"

Bokiyeva Guzal Ilhom qizi
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
San'atshunoslik va muzeishunoslik fakulteti
San'atshunoslik: tasviriy va amaliy san'at
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
[**guzalbokiyeva@g.mail.com**](mailto:guzalbokiyeva@g.mail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hunarmandlar uyushmasining kashtachilik san'ati rivojidagi o'rni va ahamiyati hamda buxoro va shahrisabz kashtachiligining tarixi yoritib beriladi. Milliy merosni asrab-avaylash, an'anaviy naqshlarni saqlash, yosh avlodni hunarmandchilikka jalg etish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali kashtachilik san'atini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, hunarmandchilik, Buxoro, Shahrisabz kashtachilik, milliy meros, hunarmandlar uyushmasi, xalqaro ko'rgazmalar, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение Союза мастеров Узбекистана в развитии искусства вышивки, а также история бухарской и шахрисабзской вышивки. Будут проанализированы вопросы сохранения национального наследия, сохранения традиционных узоров, привлечения к ремеслу подрастающего поколения, развития искусства вышивки за счет внедрения современных технологий.

Ключевые слова: Узбекистан, ремесла, Бухара, Шахрисабз вышивка, национальное наследие, ремесленное объединение, международные выставки, развитие.

Annotation: This article discusses the role and importance of the Union of Craftsmen of Uzbekistan in the development of the art of embroidery, as well as the history of Bukhara and Shahrisabz embroidery. The issues of preserving national heritage, preserving traditional patterns, attracting the younger generation to the craft, and developing the art of embroidery through the introduction of modern technologies are analyzed.

Keywords: Uzbekistan, crafts, Bukhara, Shahrisabz embroidery, national heritage, Craftsmen's Union, international exhibitions, development.

KIRISH:

Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi "Hunarmand" uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atning an'anaviy turlarini saqlash va qayta tiklash, hunarmandchilik mahsulotlarining raqobatdoshligi va sifatini

oshirish, aholini ushbu sohaga keng jalb etish orqali bandlikni ta'minlash, sayyohlar uchun jozibador bo'lgan hunarmandchilik obyektlarini tashkil etish, mahsulotlarni eksport qilishni rag'batlantirish, yoshlarni mehnatsevarlik, insonparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida hunarmandlarning "Usta-shogird" maktablarini takomillashtirish yo'lida keng imkoniyatlarni taqdim etdi.



O'zbek xalqining amaliy san'at namunalari o'ziga xos an'analarga ega. Bu san'at turi qadimdan rivojlanib o'zining uslublari bezaklari bilan bizgacha madaniy me'ros sifatida yetib keldi. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi. Amaliy san'atning kashtachilik turi qadimgi turlardan biri hisoblanadi. Kashta- amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi; igna bilan tikib tushirilgan gul tasvirli naqsh hisoblanadi. Kashta qo'lda igna, begiz igna, ilmoqli igna yordamida yoki mashinada, asosan, bo'z mato, chit, satin, shoyi, baxmal movut va charm etik, mahsi, pichoq qini, kamar, ot jabduklari va boshqa buyumlarga tikiladi. Kashtado'zlikning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga ularning ta'sirida rivoj topganini ko'rsatadi. Kashtado'zlikning paydo bo'lishi teridan qilingan kiyimlarda bog'lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Davrlar davomida toshdan suyak bigizlarga, undan metall bigizlarga o'tish birga to'qish, mato to'qish, bo'yash va boshqa ishlar bilan amalga oshiriladi. Kashtado'zlik taraqqiyotini Osiyo, Yevropa, Amerika madaniy yodgorliklari, adabiy manbalardagi kashtalar tasvirida, shuningdek saqlanib qolgan kashtado'zlik namunalarida ham kuzatishimiz mumkin. Kashtado'zlik mahsulotlarining eng qadimiylarini nusxalari saqlanib qolmagan. Kashtachilik rivojlangan xalqlarda tasviriy san'atning ta'siri katta bo'lgan. Kashta choklari, kashta tikish va uslublari iplarning ranglari ham turli tumanligi o'zbek kashtado'zlarining mahoratidan dalolat beradi. Nurota, Buxoro, Samarqand kashtachiligida ko'proq yo'rma choc bilan , Shahrisabzda yo'rma , kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko'proq bosma choc bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro'y bergen o'zgarishlar Kashtado'zlik an'analariga, mahsulotning turlariga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, hozir bo'g'joma, dorpech, oynaxalta kabi ashyolar o'z

ahamiyatini yo'qotdi, lekin paranji, kaltacha kabi kiyimlarni faqat muzeylardagina uchratish mumkin. Do'ppi, sumka, nimcha, kavush, kirpech, so'zana kabi badiiy buyum va ashylar zamonaviy did bilan bezatilmogda, shakl va badiiy bezaklarida katta o'zgarishlar ro'y berdi.



O'zbek kashtado'zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san'atining boshqa turlaridagi naqshlardan andoza olganlar, kashtalarda o'simliksimon tasvirlar, shox, gulband va guldastali tasvirlarni ko'p uchratishimiz mumkin.. Albatta, amaliy san'atning bu turi shahar va viloyatlarimizda o'zining tikilish uslubi, ranglarining serjiloligi bilan ajralish turadi.. Buxoro butun tarixi davomida hunarmandlar shahri bo'lgan: har bir mahallada tor doiradagi mutaxassislar o'rashib, asrlar davomida ma'lum uy-ro'zg'or buyumlarini yasaganlar, ajdodlar an'analarini saqlagan holda, savdo aloqalarini rivojlantirganlar. Shunday qilib, zargarlar, zardo'zlar va kashtado'zlarning avlodlari o'z shahrini dunyoga tanitdilar. Bugungi kunda Buxoro faqatgina har qanday sayyoqlik marshrutining markaziy nuqtasigina emas. Chet elliklar bu yerga kelib, bir necha haftaga, ba'zan esa osoyishtalik aurasi va buyuk shaharning qadimi devorlari nafasiga maftun bo'lib, bir umrga qolib ketishadi. Ipak iplari an'anaviy Buxoro kashtachiligidagi qo'llaniladigan asosiy material hisoblanadi. U mahsulotlarga yorqinlik qo'shadi, shuningdek, ularning mustahkamligini ta'minlaydi. Ilgari ipak anor po'stlog'i, piyoz po'stlog'i va indigo kabi tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yalgan, bu esa boy va uzoq muddatli ranglar hosil qilgan. Paxta iplar(soya)-kashta tikish uchun ishlatiladi. Ko'pincha fon va katta dizayn elementlarni yaratish uchun ishkatiladi.Oltin va kumush iplar(zardozi)- bu oltin va kumushning yupqa qatlami bilan qoplangan maxsus iplar. Ular to'y liboslari va marosim buyumlari ayniqsa qimmatbaho mahsulotlarni yaratish uchun ishlatiladi. Bunday kashtado'zlik ko'pincha egasining mavqeい va boyligini anglatuvchi boy dekor elementlarni o'z ichiga oladi. Viskoza iplar-zamonaviy hunarmandlar mavjudligi va ranglarning keng tanlovi tufayli viskoz iplardan foydalanisglari mumkin. Bu ipakdan arzonroq, lekin ularning yaltiroq tuzilishi ipakka o'xshab ketadi.



Shahrisabz kashtachilik san'ati XIX asrga kelib, o'ziga xosligi, an'anaviyligi bilan O'rta Osiyoda shuhrat qozondi. Uning qadimgi nusxa kompozitsiyalari ko'p jihatdan gilam ko'rinishini eslatadi.

Shahrisabz kashtachiligi asosan iroqi uslubida tikilsada, unda yo'rma va kandaxayol choklaridan keng foydalanilgan. Kashtaning hoshyalariva mazkaziy maydonini ajratib turuvchi "oba" chiziq yo'llari ham ana shunday uslubda bajarilgan. O'sha vaqtarda beklar va amirlar saroylari kashtachilik namunalariga buyurtma beruvchi asosiy iste'molchilardan hisoblanar edi. Shu bois bu milliy mahsulot ko'pincha shahar muhiti va tarovatining estetik didini o'zida aks ettirgan. Ma'lumki, ulug' sarkarda Amir Temur ham o'sha vaqtarda boshqa yurtlardan eng yaxshi naqqosh va hunarmandlarni olib kelganligi bois shaharda hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Natijada Shahrisabz kashtachiligida ham naqqoshlik, o'ymakorlik bilan bog'liqlik, gul shakllarining tushurilishi, barg naqshlari bilan boyitilgan o'simlik shakllarini ifodalovchi bezak uslublari yaxshi rivojlangan va haqiqiy bezak kompazitsiyalarini, xalqona shakllarni o'zida mujassamlashtirgan tasvirlar paydo bo'lgan. Kashtalar tayyorlashda qo'lida tikilgan paxta yoki shoyi matodan, shuningdek, ipak va jundan foydalanilgan. Shu tariqa kashtachilikning rivojlanishi tufayli Sahrisabzda hunarmandchilikning bu turi o'z rang-barangligi va sifatliligi bilan dovrug qozongan.

Tadqiqotchilarining aytishicha, Shahrisabz kashtasi gulbezaklarining ko'pligiga ko'ra, Buxoro va Nurota kashtachilik namunalariga yaqindir. Nurota kashtachiligida gul tasvirlariga nazokat va nafislik baxsh etuvchi erkin tagligi katta o'ren tutsa, Shahrisabz kashtachiligida taglikni to'laligicha naqsh bilan bezash yoki bezakning bir tekisda taqsimlanishi yanada yorqin aks etadi. Shahrisabz bezakchiligidagi keng tarqalgan yo'naliishlardan biri, ko'plab mayda gullar bilan bezatilgan novdalarning ko'rinishidir. Toshkent maktabilarida doira shakli ishlatilgan, asosan quyoshli o'lka bo'lgani uchun qizil yorqin ranglardan foydalanishgan, Nurota maktabida sochma gullar, islimiy gullar ko'proq tabiatdan olingan chiroyli gullar ishlatilgan. Shahrisabz maktabini oladigan bo'lsak, asosan qalampir munchoq, to'rtburchak, uchburchak, tumor shakllar ishlatilgan, bu ko'z nazar nafasdan saqlash uchun

ya'ni oilani qo'rg'oni bo'lsin degan ma'noda ham shunaqa shakllar ko'p ishlatalgan.



Kashtachilik san'ati O'zbekiston madaniyati va hunarmandchiligidagi o'ziga xos o'ringa ega. Hunarmandlar uyushmasi bu sohada ishlayotgan kasanachilarni qo'llab-quvvatlab, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Uyushma tomonidan tashkil etilayotgan ko'rgazmalar, seminarlar va xalqaro festival-lar milliy kashtachilik san'atining dunyo bo'y lab tan olinishiga turtki bermoqda. Kashtachilik, avvalo, O'zbekistonning har bir hududida o'ziga xos uslub va naqshlar bilan ajralib turadi. Samarqand, Buxoro, Shahrисабз va Marg'ilon kabi shaharlarda bu san'atning turli maktablari mavjud bo'lib, ular asrlar davomida o'ziga xos texnika va naqshlar boyligini yaratgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy hunarmandlar an'anaviy va zamonaviy materiallar va usullardan foydalangan holda an'analarni faol ravishda tiklaydilar va saqlaydilar. O'zbekiston hunarmandlar uyushmasi kashtachilik san'atining milliy va xalqaro miqyosda rivojlanishiga ulkan hissa qo'shamoqda. Bu esa milliy merosni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazishdagi muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Хакимов А.А. Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. - Ташкент.: 2013. - С. 207
- 2.O'zbek xalq amaliy san'ati. O'quv qo'llanma A.Hakimov, Z.Nosirova, B.Nodir.- Toshkent:LESSONPRESS.2019.-132b
- 3.Khayitboboeva K. P. A Study Of The Problems Of Tradition And Innovation In Modern Uzbek Folk Art //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 11. – С. 14-20.
4. Xayitboboyeva X. P., Jo'Rayeva M. Z. TOSHKENT YOG 'OCH O'YMAKORLIGIDA IBRAGIMOVLAR SULOLASINING O 'RNI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 862-868.
5. Gulnoza USMONOVA. "Shaxrisabz kashtachiligi".

YOSHLAR INNOVATSION RIVOJLANISHINING IJTIMOIY TAHLILI

Xo'jayeva Gulshoda Jalilovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar innovatsion faolligi, rivojlanishining ijtimoiy tahlili, va yoshlarga oid vaziyatning dolzarb pedagogik masalalari, oqibatlari, asoslari haqida fikr va mulohazalar yuritadilar.

Kalit so'zlar: yoshlar, innovatsiya, xulq-atvor, faollik, guruh, inson, intellect.

Ma'lumki, yuksak tafakkurga ega insongina innovatsion g'oyalarni, yangi fikrlarni shakllantirishi va ularning amaliyotdagi ahamiyatini tushunishi mumkin. Milliy va umuminsoniyat taraqqiyotiga daxldor g'oyalalar, kashfiyotlar, jahon xalqlarining buyuk asarlari yuksak tafakkurning mahsulidir. Insonni chinakam shaxs bo'lib shakllanishiga undaydigan, uning oldidagi jumboqlarining echimlari haqida mulohazalar, qarashlar va g'oyalarni o'ziga mujassam etadigan falsafa ham tafakkurning mahsuli sanaladi. Demak, innovatsiya bilan tafakkur obratzli qilib aytganda tanganing ikki tomoni, deyish mumkin. Tafakkursiz innovatsiyani tasavvur etib bo'limganidek, tafakkurni ham innovatsiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, yoshlarda innovatsion tafakkurni rivojlanishish orqaligina ularda ijtimoiy faollikni rivojlanishish mumkin. Bunday tafakkur o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki oiladagi muhit, ota va onadagi yangilikka, hayotda sodir bo'ladigan turli hodisa va jarayonlarga qiziqish, echimini izlashga moyillik ijobiy ta'sirini o'tkazadi. SHu bilan birga, innovatsion tafakkur shakllanishi va rivojlanishining yana bir omili yoshlarning badiiy va san'at asarlarini o'qishi, o'rganishi, o'ziga zarur bo'ladigan xulosalarni yarata bilishga intilishdir. Xo'sh, bu yo'nalishdagi asosiy muammolar nimadan iborat? Bir tomonidan, innovatsion g'oyalarga, ixtirolarga ehtiyoj oshib borayotgan bugungi kunda yoshlarning badiiy va san'at asarlariga bo'lgan qiziqishlari «so'nib» borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, ularning o'rnnini internet, mobil telefon va shu yo'nalishdagi ommaviy kommunikatsiya texnologiyalari egallayotganligi tashvishga solmoqda. Inson kitobni o'qib, voqeja va jarayonlar haqida mulohaza yuritib, yaxshi xulosalar hamda yangi fikrlarga ega bo'la oladi. Ommaviy axborot vositalari insonda voqealar yoki jarayonlarni «mexanik» tarzda etkazadi, ammo mushohada uchun vaqt «qoldirmaydi», uning tezligi kitob o'qishdan oladigan ma'naviy ozuqani bera olmaydi. Baribir, mazkur virtual g'oyalalar yoshlar o'rtasida ommalashib bormoqda.

Biz bu jarayonlarning qanday kechayotganligini, yoshlarning «Innovatsiya» tushunchasiga munosabatlari va unda qay darajada ishtirok etaayotganligini aniqlash maqsadida sotsiologik so'rovnomalar o'tkazdik.

So'rovnoma jami 1605 nafar respondent ishtirok etdi. Yoshlarga bergen birinchi savolimiz: «Innovatsiya» tushunchasini eshitganmisiz va uni o'z faoliyatizingizda qo'lladingizmi?». So'rovda qatnashgan respondentlar «innovatsiya» tushunchasini 157 nafari (9,7%) yangilik, 241 nafari (15,8%) kashfiyot va ularning tatbiqi, 118 nafari (7,4%) esa yangi ihtiolar deb baholashgan hamda 1089 nafari (67,8%) yuqoridagilarning barchasi, deb javob berdilar. Natijalardan ko'rinish turibdiki, bu tushunchaning kundalik hayotimizga kirib kelganiga atigi 6–7 yil bo'lishiga qaramay, mazmun-mohiyatini tushunayotganlar borligi ma'lum bo'ldi. Ammo respondentlarning 991 nafarini (61,7%) oliy va 518 nafarini (23,3%) o'rta maxsus ma'lumotlilar tashkil qilganligini hisobga olsak, bu ko'rsatkichni etarli, deb bo'lmaydi. Albatta, bu tushunchaning mazmun-mohiyati tushunib etilgan. Respondentlar o'z faoliyatida yangilik yaratishga intiladilar. Chunki, ular yaratadigan yangiliklar nafaqat moddiy farovonlikka, hatto intellektual salohiyatning rivojlanishiga ham ijobjiy ta'sir o'tkazishini anglaganlar.

Ulug' ajdodlarimizning komil insonga bergen ta'riflarga e'tibor bersak, ular ta'riflarida ham komillikning muhim mezonlari ichida maorif, ta'lim, bilimni ko'ramiz. Bu haqida tasavvufshunos olim N.Komilov buyuk alloma Aziziddin Nasafiyning komil insonga bergen quyidagi ta'rifini keltirgan: «Bilginki, komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatda etuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: unda quyidagi to'rt narsa kamolga etgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif» (ta'kid bizniki – S.O.). Bu erda Nasafiy bobomiz sanagan sifatlarning dastlabki uchtasi, ya'ni yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi xulq Zardusht kitobi «Avesto»dan olingan. Aziziddin Nasafiy yaxshi axloq haqidagi Zardusht so'zi yoniga «maorif», ya'ni tasavvufiy poklanish talabini qo'shib qo'ygan». Aytmoqchimizki, ta'lim va ilm olish xalqimizga azaliy qadriyat sifatida ajdodlarimiz tomonidan komillikning muhim mezoni sifatida asrlar davomida etkazilgan. Milliy qadriyatimiz darajasiga ko'tarilgan ma'naviyatimiz va intellektual salohiyatimizning mezoniga mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» (1997) va boshqa me'yoriy hujjatlar, yuksak intellektga ega yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan. Ularni amalga oshirish borasida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritilishiga qaramasdan, ular shiddat bilan o'zgarayotgan ehtiyoj va talablaridan orqada qolayotganligi sir emas.

Birinchidan, ta'lim tizimida o'qitilayotgan fanlarning o'quv dasturlarini har yilda o'zgartirilishi bir yilga emas, balki besh va undan ortiq yillarga mo'ljallangan barqaror mukammal dasturlarning yo'qligi, o'quv bazalarning ko'pchilik o'quv yurtlari va maktablarda nochorligi, oqibatda kadrlar bilim darajasining pasayganligi; ikkinchidan, mamlakatimizda xorijiy tillarni o'zlashtirishga oid yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanim, o'z mablag'imiz hisobiga ularni o'zlashtirib xorijiy ellarga ketib qolayotgan iste'dodli yoshlarmiz sonining yildan-yil oshib borayotganligi; uchinchidan,

oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish borasidagi «islohotlar» sezilarli darajada natijalarni bermayotganligi; to'rtinchidan, ta'lif tizimiga xorij tajribasini joriy qilish, ularni o'zimizning milliy qadriyatlarimiz, jahonda inson ongi va qalbini egallash uchun qaratilgan harakatlarni etakchi mamlakatlar taraqqiyotining strategik vazifasiga aylantirgan sharoitda yoshlarmiz oldida sergaklik va millatparvarlik tuyg'usini uyg'otish zarur. SHuningdek, yoshlarning ijtimoiylashuviga ta'sir o'tkazadigan va milliy, umumxalq va Vatan manfaatlarini shakllantiradigan ijtimoiy fanlarni o'qitishni yildan yil-qisqartirilayotganligi ham intellektual imkoniyatlari yuksak yoshlarni tayyorlashga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimiz intellektual salohiyatini yuksaltirish, aql-zakovatli, ma'naviyati yuksak kadrlarni tayyorlashda xorijning ilg'or tajribasidan foydalanishimiz – zamonning talabi, uni inkor etib bo'lmaydi. Ammo, gap ularning hammasini emas, dunyoqarash, ong, ma'naviyat va ularda qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan ko'pgina «yutuqlar»ni yoshlarmizda intellektual salohiyatiga ko'chib o'tishdan ogoh bo'lishimiz haqida ketmoqda. Bu borada asrlar davomida ajdodlarimizning bizga qoldirgan buyuk meroslariga, jahonda amal qilayotgan falsafiy meros va qadriyatlarga asoslangan holda o'zimizning «model»imizni yaratishni strategik vazifaga aylantirsakkina, intellektual salohiyatimizni rivojlantirish imkonini beradi. Intellektual salohiyatning negizini ta'lif va tarbiya tashkil qilishi isbot talab qilmaydigan haqiqat ekanligi barchaga ma'lum. SHu ma'noda ham bu sohada «islohot»larni amalga oshirish va unga xorij tajribalarini tatbiq qilishda «O'zbekona» tafakkur yuritib, mamlakatimizning intellektual salohiyatini shakllantirishda o'z tajribalarimiz asosida o'zgalar bilan teng qatnashadigan darajaga etkazish faoliyatimizning bosh yo'nalishiga aylanishi lozim.

Yoshlar innovatsion faolligini oshirishdagi yana bir yo'nalish – jamiyatda mavjud bo'lgan turli ijtimoiy guruhlar va tabaqalar bilan hamkorligining mustahkam bo'lishiga erishishdir. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning insonlarning birgalikda, ya'ni o'zaro hamkorlikda hayot kechirishiga sabab bo'ladigan ushbu fikri diqqatga sazovor: «Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashash zarurligini anglay boshlaydi. SHuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnama» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilishi ham zarurdir».

Alloma insonning yakka o'zi ehtiyojlarini qondira olmasligini, buning uchun boshqalar bilan hamkorlik qilishning o'zi etarli emasligi, ayni paytda, birgalikda mehnat qilishi zarurligini ta'kidlaydi. Beruniy bobomizning fikrini keltirishimizdan maqsad insonlararo, guruhlar, tabaqalar, sinflararo hamkorlik masalasi har doim dolzarb bo'lib kelayotganligini alohida ta'kidlashdir. Bu, bugun va ertaga ham o'zining dolzarbligini yo'qotmaydigan qadriyat. Ana shu fikrimizdan kelib chiqqan holda, bugun yoshlarda innovatsion faollikni oshirishda ular qaysi sinflar, ijtimoiy guruhlar va

tabaqalar bilan hamkorlikni amalga oshirishlari kutilayotgan samarani berishi mumkin, degan savolga javob izlashga harakat qilamiz.

«Hamkorlik» jamiyat va inson hayotining barcha sohalari, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalardagi aloqalarni ifoda ettirish ma'nosida qo'llanib kelayotgan tushunchadir. Deyarli u qo'llanilmaydigan biron ta soha yo'q. Ular o'z yo'nalishi, ko'zlangan maqsad va manfaatlar yo'nalishlariga mos turli shakllarda namoyon bo'ladi. YOshlarda innovatsion faollikni oshirishga xizmat qilishga qaratilgan hamkorlik ana shu yo'nalish va shakllardan birini tashkil qiladi.

Yoshlarda ijtimoiy-innovatsion faollikni rivojlantirishning yana bir yo'nalishi – bu ularning mamlakatimizda fan, texnika, texnologiya sohalarida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarga keng jalg qilish, bu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlarning ishtirokchisiga aylantirish, ayni paytda mavjud muammolar echimini izlashga keng jalg etish, muammoning echimini topa bilish salohiyatini rivojlantirish orqali ularda ishonch ruhiyatini shakllantirishdir. Bunday ruhiyatni shakllantirishda ta'lim tizimi etakchilik qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. - Toshkent: «O'zbekiston», 2001. – B. 17.
2. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. T.1. - Toshkent: «Fan», 1968. – B. 74.
3. Ilinskiy I.M. Molodej i molodejnaya politika: filosofiya, istoriya, teoriya. - M., 2001.
4. Iminov Bahodir-Karim. Manfaatlar – siyosat va mafkura. - Toshkent: «Minhoj», 2002.
5. Isoqov B. Ziyolilik mas'uliyati. -Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.– B. 8.
6. Karimov B.R. O'zbekistonda intellektual potensialni rivojlantirish masalalari // «G'oyalar va innovatsion taraqqiyot», II ilmiy-nazariy seminar materiallari. - Urganch, 2013. – B. 82.
7. Kovaleva A.I., Lukov V.A. Sotsiologiya molodeji: teoreticheskie voprosy. - M.: 1999.

PSIXOLOGIK DESPOTIZM VA UNING ASOSIY BELGILARI.

Hoshimova Lolaxon Axmed qizi
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotasiya: Maqolada bugungi kunda jamiyatimizda ko'p kuzatilayotgan psixologik despotizm, kelib chiqish sabablari va uning asosiy belgilari ijtimoiy psixologik jihotlari haqida so'z yuritilgin.

Kalit so'zlar: despotizm, zug'um, sha'ni, qadr-qimmat, erkinlig, tarbiyaviy munosabatlari, ta'lif, tarbiya, o'zini-o'zi tarbiyalash, muloqot va rivojlanish.

Ma'lumki, oila-turmush munosabatlari doirasidagi muammolar o'zining ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Bu boradagi muammolarni o'rghanish, ilmiy tadqiq etish, ayniqsa bugungi kunda o'ta dolzarb masala hisoblanadi. CHunki, oilaning muhim vazifasi ota-bobolarimizning eng yaxshi an'ana va udumlarini davom ettirib, yosh avlodni tarbiyalab jamiyatni mustahkamlashdan iborat bo'lsa-da, unga rahna soladigan zo'ravonlikning ijtimoiy xavflik xususiyati, darajasi va tabiatiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Zo'ravonlik insonning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa qonuniy huquq va manfaatlariga qaratilgan uchun xavfli ekanligi;
2. Zo'ravonlikning jamiyat hayoti, ayniqsa bolalar tarbiyasi va ruhiy salomatligi uchun xatarining yuqoriligi;
3. Zo'ravonlik sodir etuvchi shaxsning ichki dunyosi, ma'naviyati, ruhiyati va psixologik xususiyatlarida nuqsonlar mavjudligi;
4. Zo'ravonlik insondagi zulmkorlik, zolimlik, xudbinlik kabi xulq-atvor va xususiyatga ko'ra yuzaga kelishi;
5. Zo'ravonlik oqibatlari insonning tanasiga o'ta og'ir, og'ir, uncha og'ir bo'lмаган, ijtimoiy xavfi katta bo'lмаган darajada shikast etkazish mumkin ekanligi;
6. Zo'ravonlikning yuzaga kelishida oilada nosog'lom muhit, rashk, ichqilikbozlik, qasd, o'ch olish kabi illatlarning mavjudligi.

Oiladagi zo'ravonlik shaxsda yuqorida keltirilgan psixologik ta'sir ko'rsatishi bilan birga insonning xulqi-atvorida zulmkorlik tufayli sodir etilayotgan jinoyatlarning yuzaga keltiradi. Jumladan, 9,2 % qasddan odam o'ldirish, 3,7 % o'zini-o'zi o'ldirish darajasiga etkazish, 21,7 % qasddan badanga og'ir shikast etkazish, 24,3 % qasddan badanga engil shikast etkazish, 3,1 % qiynash, 1,0 % o'ldirish yoki zo'rlik ishlatalish bilan qo'rqtish, 7,8 % nomusga tegish, 10,4 % haqorat qilish 2,3 % boshqa turdag'i jinoyatlar sodir etilishida zulmkorlik ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ma'lumotlar zulmkorlikning ijtimoiy xavfini oshirishi, jinsiy, jismoniy, ruhiy turlarini namoyon etishini tasdiqlaydi va bu muammoni ilmiy-tadqiq etishni dolzarbligini oshiradi.

Oilaviy munosabatlarda bir qaraganda anchagina murakkab, lekin muhim muammo zulmkorlik qadimdan diniy, ahloqiy, tarbiyaviy, ma'naviy, psixologik qarashlarda dolzARB masala bo'lib kelgan. Aynan zulmkorlik muammosi insonning muqaddas maskani bo'lgan oilada sodir bo'lishi oila a'zosining erkak yoki ayol bo'lishidan qat'iy nazar, o'z hayotidan rozi bo'lmasligi, oilasidan bezishi, baxtsiz his qilishi kabi bir qator psixologik munosabat ko'rinishlarini namoyon etadi. SHunday vaziyatni salbiy ekanligi ma'lum va buning oilaviy munosabatlarda aks etishini oldini olishda aynan salbiy tomoniga emas, qaramaqarshi bo'lgan jihatdan qarash muhim ekanligi muqaddas dinimizda tushuntirib berilgan. Masalan, Islom dinida er-xotin orasida xamjihatlik, tushunish emas, balki zolimlik, zug'm ko'rsatish og'ir gunoh ekanligi va gunoh ishlardan saqlanish masalasi alohida e'tirof etiladi.

Inson ruhiyatidagi buzilishlar zulmkorlikka moyillikning kuchayishiga sabab bo'lishi aniqlangan. Psixik buzulishlarda shaxsda tajovuzkor hulq-atvor shakllanishi, u esa turli hissiy holatlarda, ya'ni qasos, g'arazli maqsad, ko'rolmaslik yoki nafrat oqibatida ham namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, turli adabiyotlarda «despotizm (zulmkorlik)»ning turlariga oid har xil tushunchalar mavjud.

1. despotizm -qonun bilan cheklanmagan absolyut xukmronlik;
2. despotizm - zo'ravon xukmronlik;
3. despotizm - o'zboshimchilik;
4. despotizm - bir shaxsning cheklanmagan xukmronligi.

Despotizm – vaxshiyligi bilan qonun va bilimdan farq qiladi. SHuning uchun xam doimo noxaqliklarni keltirib chiqaradi.

Oiladagi zulmkorlik oqibatida shaxsning hayoti, sog'lig'i uchun xavfli ahvolda turli darajada tan jarohati etkazish, jabr-zulm qilish, kaltaklash, qiynash, og'ir ahvolga solish kabi omillarning sabab sharoitlari, tasnifi, xulqda moyillik xususiyatlarini ilmiy amaliy jihatdan o'rganish maqsadga muvofiqidir.

Oilaviy munosabatlar doirasida sodir etiladigan zo'ravonliklarning asosiy qismi ruhiy (psixik) zulmkorliklar tashkil etadi. Oilada sodir etiladigan despot xolatlarda:

1. Shaxs ruhiyatiga (psixik) ta'sir ko'rsatish;
2. Qo'rqtib bo'ysundirish;
3. Majburlash;
4. Ho'rlash;
5. Jabr-zulm qilish;
6. Zo'ravonlik qilish;
7. Sirini fosh etishni aytib qo'rqtish;
8. Uydan haydar yuborishga harakat qilish;
9. Bolalarni kaltaklab alamini ulardan olish;
10. Ojiz ahvolda qoldirish yoxud o'ziga bo'ysundirish kabi ko'rinishlar namoyon bo'ladi.

Zulmkorlik – despotizmda shaxsning ruhiyatiga turli usullar bilan ta'sir ko'rsatib, ruhiy zo'riqishni keltirib chiqarish hamda shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va erkinligini cheklashga qarshi xatti-harakatlar sodir etiladi.

Oiladagi zulmkorlikka shaxsga taalluqli har qanday salbiy xatti-harakatni kiritish mumkin. Despotizmning oiladagi turlari sifatida:

Oilaning bir a'zosi tomonidan boshqa a'zosining sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish;

1. Shaxs ustidan kulish, obro'sizlantirish;
2. Qarindosh urug'lar orasida sharmanda qilish;
3. Ruhiyatiga ta'sir etish: baqirish, haqorat va tuhmat qilish;
4. Doimiy tanqid qilish, qo'rqtish;
5. His-tuyg'ularini so'ndiruvchi harakatlar qilish;
6. Haqorat qilish kabilar shaxsga ko'rsatilgan ruhiy zulm hisoblanadi.

Despotizmning oiladagi keltirilgan bu turlari shaxsda ruhiy zo'riqishni keltirib chiqarib, o'z joniga qasd qilishgacha olib kelishi mumkin.

Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, oiladagi zulmkorlik ko'pincha tajovuzkorlik xususiyatlari bilan bog'liq holda sodir etilishini insoniy nizolar mahsuli, deb aytish mumkin.

Zulmkorlikning manbai va tabiatini aniqlash ushbu muammoni o'rganishning eng muhim jihatini ifodalaydi. Ushbu masala borasida shaxsning bunday hatti-harakatlarni sodir etishi biologik jihatdan taqozo qilingan va u nasldan naslga o'tishi mumkinligini, shuningdek shaxsdagi tajovuzkorlik xususiyalari ko'p jihatdan irsiy xususiyatlarga bog'liq ekanligini e'tirof etishadi.

Oiladagi zulmkorlik ko'p hollarda jismoniy va ruhiy holda sodir etiladi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda ruhiy zulmkorlikning ta'siri shaxsda uzoq vaqt saqlanadi.

Ruhiy zo'rlik ishlatalish deganda – juftiga nisbatan ruhiy (psixik) ta'sir ta'sir etish yo'li bilan jismoniy zo'rlik yoki azob berish harakatlar tushuniladi.

Iqtisodiy tazyiq deganda – oila boshlig'ining oiladagi boshqa shaxslarni asossiz sabablarni ro'kach qilgan holda, oila mablag'idan foydalanishni mahrum etish orqali moddiy qaram qilishi tushuniladi. Ayrim oilalarda erkak yoki ayol tomonidan oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan tobe qilish ya'ni, oila mablag'idan foylanishga ruxsat bermaslik, kundalik xarajatlari uchun mablag' berishni to'xtatish, qisqartirish orqali ham oilada o'z hukmronligini o'tkazishga harakat qilish iqtisodiy tazyiqqa duchor etish orqali moddiy qaramlikni o'rnatish; jabrlanuvchini pul, oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar va hokazolar olib kelganligini ta'kidlash orqali asossiz pul bermaslik, nimaga qancha pul sarflanishini nazorat qilish, o'zi topgan pulga egalik huquqidan mahrum etish; oila byudjetidan foydalanish imkoniyatini bermaslik holatlari mavjud.

Oiladagi zulmkorlikning kimga nisbatan ko'rsatilayotgani nuqtai nazaridan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ayollarga nisbatan zulmkorlik;

2. Bolalarga nisbatan zulmkorlik;
3. Qariyalarga nisbatan zulmkorlik;
4. Qarindoshlarga nisbatan zulmkorliklar.

Fikrimizcha, oilada sodir etiladigan zulmkorlikning ijtimoiy munosabatlardagi rolini bir so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. CHunki, bu despotik xolat asosan o'zini ko'rsatish, boshqalar oldida obro' orttirishga intilish yoki o'zining nimaga qodir ekanligini ko'rsatish maqsadlarida ham sezilarli darajada sodir etiladi.

Oilada sodir etiladigan zulmlarning kelib chiqishiga ko'pgina holatlarda jabrlanuvchining xulqi jiddiy ta'sir ko'rsatadi, inson sha'ni va qadr-qimmatini erga urish, yakkalatib qo'yish va his-tuyg'ularni tan olmaslik kabilar sabab bo'ladi.

Shaxsdagi noma'qbul fe'l-atvor ko'pincha inson psixologiyasiga salbiy ta'sir etishda namoyon bo'ladi, despotning yuzaga kelishida muhim rol o'ynaydi. Bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga ruhiy tazyiq o'tkazish, ya'ni unga laqab qo'yish, uni yakkalatib qo'yish, fikriga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish, uni rad etish yoki umuman e'tiborga olmaslik, do'q-po'pisa bilan qo'rqitish, erga urish, kamsitish, uning hatti-harakatlari ustidan kulish va asabni buzuvchi so'zlar bilan muomala qilish kabilar zulmkorlikning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Oilada sodir etiladigan despotning boshqa ko'rinishlari, xususan bolalarga zulmkorlik qilish, bolani onadan ajratib qo'yish, erkak kishining o'z hukmronligini o'rnatishga qaratilgan qilmishlarni e'tiborga olish lozim.

Bolalarga zulmkorlik qilish - bolalarni kaltaklash, ularga jismoniy yoki ruhiy ta'sir o'tkazish orqali o'ziga bo'ysundirish yoxud ularni qo'rqitish kabilarda namoyon bo'ladi. Bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ularni jismoniy va ruhiy qiyash, tarbiyalashning yo'l qo'yib bo'lmaydigan usullarini qo'llash, bolalarni insoniy g'ururlarini kamsitish va hokazolarda ifodalanishi mumkin.

Ayrim hollarda, oilada bolaga nisbatan jismoniy jazolash qo'llanilmasligi mumkin, lekin ularda ruhiy bosim o'tkazish, uni butkul nazorat qilish va bolaning fikrini inobatga olmasdan, maktab o'qituvchisi bilan birgalikda xulqini qoralash. Tashqi tizimlar (tashkilotlar) ta'siriga tushib, ular bilan birgalikda ish olib borish, oilada xavotir darajasi bo'lgan hollarda ko'p kuzatiladi. Bunday hollarda, oila a'zolarida o'z mas'uliyatlarini tashqi tizimga (shaxslarga) o'tkazish niyatini paydo bo'ladi.

Qiyash - ko'p marotaba yoki uzoq vaqt davomida og'riq etkazish bilan bog'liq harakatlar, chimchilash, savalash, tanaga shikast etkazish harakatlaridan iboratdir. SHuningdek, oila a'zosini, ayniqsa ayol va o'smirlarni kun davomida nima qilishi, kim bilan do'stlashishi, ko'rishishi, gaplashishini asosiz ravishda doimiy nazorat qilish, ularga yaqin insonlari bilan muomala qilishini qiyinlashtirish yoki taqiqlashni ham qayd etish mumkin.

Zulmkorlikning yana bir shakli e'tiborsizlik, beparvolik bo'lib, u jismoniy nuqsonli, nogiron, ruhiy kasal bolalarga nisbatan ko'proq qo'llaniladi.

Zulmning ushbu shakli o'ziga qaram bo'lgan shaxsning qarovsiz qoldirish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, tibbiy yordam, parvarishlashga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini qondirishni tizimli ravishda xohlamaslikda namoyon bo'ladi.

Bolaning manfaatlari va ehtiyojlariga nisbatan befarqlik zulmi (despot) ham harakat ham harakatsizlik yo'li bilan amalga oshirilishining yorqin misol bo'lib, ko'p hollarda bolalardagi ta'lim tarbiyaning buzulishiga kattalarning o'zi ham sababchi bo'ladi. Oilada kattalarning ahloqqa zid ko'rinishidagi salbiy ma'naviy-ruhiy xususiyatlari nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishga qulay vaziyat yaratadi. Bularning oqibatida nizolarni yanada kuchayishi, sonining ortishi kuzatiladi.

Zulm va ehtiyotsiz munosabat qurbonlarida jismoniy va intellektual rivojlanishdan orqada qolishdan tashqari ijtimoiylashuv va moslashuvda ham muammolar paydo bo'la boshlaydi. Dushmanlik muhitiga moslashishi uchun bola o'zida o'sish va rivojlanishni cheklovchi yashab qolish strategiyasini shakllantiradi. Bolaga katta yoshli kishining dushmanlik kayfiyatini bashorat qilish hamda o'zini zulmdan himoya qilish imkonini beruvchi ko'nikma oddiy holatda o'ta mos kelmaydigan hol bo'lishi mumkin. Ushbu bolalar muloqotga kirishishi hamda jamiyat hayotiga moslashishi qiyin, ular ijtimoiy jihatdan etilmagan va noto'g'ri shakllangan bo'ladir.

Jismoniy zo'ravonlikka duchor bo'lgan bola, katta yoshli kishining tajovuzkorona hatti-harakatlarini ko'rib, tajovuzkorona xulq-atvorini keyinchalik o'zining shaxsiy va ijtimoiy hayotida qo'llaydi. Yoshlikda shakllangan xulq-atvor namunalari katta bo'lgach agressiyaning tiklanishiga olib keladi.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Крюкова Т.Л., Сапоровская М.В., Куфтяк Е.В. Психология семьи: жизненные трудности и совладение с ними. – СПб., Речь, 2005. – 240 с.
2. Казанцева О., Ипполитова А. Социально-психологическая реабилитация женщин и детей, пострадавших от домашнего насилия. Методическое пособие.
3. Елизаров В.В. Демографическая ситуация и проблема снежной политики // Социологические исследования. 1998. №2. –С. 55–56.
4. Варга А. Домашнее насилие. // «Трудные взрослые – трудные дети». О домашнем насилии и подростковых правонарушениях. – Москва: Издательский дом «Самокат», 2014. Стр.82-83.

BEHBUDIYNING MAORIF SOHASIDAGI ISLOHOTLARI**Jalilova Zahro Komil qizi**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM 1-kurs talabasi
jalilovazahro64@gmail.com

Annotasiya: ushbu maqolada jadidchilik harakatining yirik vakili Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkistonda ilm-marifatni rivojlantirish uchun olib borgan harakati va uning ma'rifat tarqatish yo'lida qo'shgan hissasi to'g'risida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: Jadid, maorif, "usuli jadid", rushadiya, huquqiya, hikmiya.

Annotation: this article discusses the movement of Mahmudhoja Behbudi, a prominent member of the Jadid movement, to promote science and enlightenment in Turkestan and his contribution to the dissemination of enlightenment.

Keywords: Jadid, education, Jadid method, Rushadiya, jurisprudence, hikmiya.

Mustaqillik sharofati tufayli biz jadidlar merosini o'rganishga, xotiralarini abadiylashtirishga erishdik. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o'zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag'on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyondalarining, oddiy kasb egasi bo'lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda»[1].

Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri Maxmudxo'ja Behbudiy bo'lib, u 1874 yil 10 martda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida tavallud topgan. U o'zbek xalqining yagona jo'g'rofiyashunosi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalisti edi.

Mahmudxo'ja 6-7 yoshlarida o'qib xat-savod chiqargach, otasi uni qori qilish maqsadida Qur'oni yodlata boshladi. Mahmudxo'ja Qur'oni yod olgach, qorilik bilan qanoatlanmay 15 yoshlaridan tog'asi mufti mulla Odil huzurida dars olishga kirishdi. Bu erda u «Qofiya», «Shahri mullo», mantiqdan «Shamsiya», «Muxtasar al vaqoya», «Hoshiya» va hisob ilmini ham o'rganadi. Mahmudxo'ja o'quvchilar orasida ibratlisi hisoblangan, o'tkir zehnli va o'qishga havasi balandlardan edi.

Mahmudxo'ja Bexbudiy otasi vafot etganidan so'ng o'qishni tark etib, kasbkorlik qilishga majbur bo'ladi. Samarqand muzofati «Chashmi ob»da

endigina qozi bo'lgan tog'asi Muhammad Siddiq huzurida mirzolik xizmatida ishladi. Bu erda ikki yillik xizmati chog'ida, qozixona ishlari bilan keng tanishdi. Ish yuritish, huquqqa xos hamda muftilikka tegishli barcha yumushlardan xabardor bo'ldi. U ikki yildan so'ng mustaqil alohida bo'lisda mirzolik qiladi va tez orada muftilikka ko'tariladi. 1916 yilgacha shu erda ishlaydi.

Behbudiy Makkaga borish uchun jiddiy tayyorgarlik ko'radi, arab tilini o'rganadi, islom nazariyalari bilan tanishadi. Hajni etuklik imtihoni deb biladi va nihoyat 27 yoshida Makkada bo'lib, hoji va mufti unvonlari bilan qaytadi.

Sharq xalqlarining ma'naviy hayotida, maktab-maorifida chinakam to'ntarish yasagan, turkiy qavmlarning chinakam iftixori bo'lgan Ismoilbek G'aspirali tomonidan ishlab chiqilgan ta'lif berishning «usuli jadid»itarixda katta o'rinn tutgani singari, Behbudiyning nomi ham Turkiston maktab-maorifida keng o'rinn egallaydi. U birinchi bo'lib o'lkada bu yangicha usuldag'i maktablarni tashkil etishni targ'ibotchilaridan hamda amaliyotchilaridan biriga aylanadi. Bu sohada Behbudiy Ismoilbek G'aspiralidan ko'p yangi tomonlarni o'rganadi. «Tarjimon» gazetasi Behbudiy uchun vaziyatni anglashda zaruriy vosita bo'ladi. Gazetaning dastlabki sonlarida u: «Bir bechora faqirni ko'rsak, achinamiz. O'layotgan bechorani ko'rsak, yuragimiz iztirobdan og'rinadi. Hatto biror hayvonning qiynalishi rahmimizni keltiradi. Lekin bir emas, minglab kishilarning, butun bir xalqning jaholatdan mislsiz qiynalayotganini ko'rmaymiz»[1], deb yozgan edi. Keyinchalik «Tarjimon» sahifalarida yangi maktablar tashkil etish, ilg'or va yangi fikrlarni berish keng o'rinn egalladi. Bu esa Ismoilbek G'aspiralining birinchi tomondan millatlar qarindoshligini himoya etsa, ikkinchi tomondan umumdemokratik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Behbudiy o'ziga G'aspiralining tutgan yo'lini tanlaydi va undan maslahatlar oladi hamda maslakdoshiga aylanadi.

Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qaytarzda tuzish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minot masalalari va boshqa ko'p jihatlarini G'aspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o'rganadi. Shulara sosida Turkistonda «usulijadid» maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarflaydi. Nafaqat tashkil etish, u shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'zhovlisida maktab ochdi. Mashhur pedagog Abdulqodir Shukuriyning yangi usuldag'i maktabini o'z hovlisiga ko'chirib keladi.

1918 yilda Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi» tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi. Shunda u yangi maktablar tarmog'ini yanada kengaytiradi. O'quv rejalarini tuzish, yangi darsliklar yaratish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarini rivojlantirib yuboradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy «usuli jadid» maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. «Muxtarasi tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jo'g'rofiya umroniy» («Aholi jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtarasi jo'g'rofi rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Amaliyotchi islom» va hokazo kitoblari darslik sifatida o'qitilgandi.

«Usuli jadid» maktablarida hamma o'kish huquqiga ega bo'lgan. Chor amaldorlari bu paytda Turkistondagi yangi usuldagagi maktablarni biron ayb topib darhol yoptirar edi. Chunki, podsho hukumati «begona xalq»ning qisman bo'lsa ham ilm-ma'rifikatli bo'lishini, dunyoviy bilimlarni o'rganishini istamasdi. Yangi usul maktablarini faqat podsho hukumati emas, balki mahalliy ruhoniylar, eski maktabning domlalari ham yoqtirmas edilar. Ular yangi usul maktablari «islom diniga rahna soladi», «bu maktablarning muallimlari «kofir», deb tashviqot yuritar edilar. Bunday qarash va to'siqlarga qaramasdan Behbudiy va uning maslakdoshlari «usuli jadid» maktablarida Turkiston farzandlarini o'qitish ishlarni jadal suratda olib borardilar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «usuli jadid» maktabidagi o'qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilgan: «Maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich – ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to'rt yil. Birinchi yilida: forscha va arabcha yozuv hamda o'qishni o'rganilgan. Suralar yod olingan. Hisob darsi o'rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozmoq o'qimoqni to'liq o'rganganlar. Ikkinci yilida: xafsiyak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yilida: Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan.

To'rtinchchi yilida: esa Kalomu Sharif, mufassal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Hohlasa ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa Evropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishslashga yo'llanma berardi.

Maktabning ikkinchi bosqichi – rushadiya bo'lib, bunga to'rt sinf – ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilar edi. Bu bosqichda o'qitiladigan dars va ilmlarning mundarijasi quyidagicha: birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning «Guliston», turkiy tili o'qitilgan; ikkinchi yil – arab tili, shifoxiya, tarix, islom axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar; uchinchi yil – arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix turkiy til, rus tili ham o'qitilgan; to'rtinchchi yil – arab tili, rus qozixona xatlari, bo'listnoyxona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko'pgina hayotiy darslar o'qitilgan.

Ular yangi usul maktablarini afzalliklarini isbotlash uchun ota-onalar, din arboblari va shahar hukmdorlari ishtiroyida tantanali imtihonlar o'tkazishgan. Shunga qaramay musulmon ruhoniylarining aksariyati bu

maktablarga salbiy munosabatda bo'lgan, yangi usul maktablari tashkilotchilarini dindan qaytgan deb qoralanganlar.

Behbudiy mahalliy aholi farzandlari uchun jadid maktablarini ochish bilangina shug'ullanmay, balki ularni Istanbul, Qoxira, Peterburg singari jahoning yirik markazlarida o'qitish masalalarini ham o'rtaga tashladi. Bularning, ya'ni o'sha joylarda o'qib kelganlarni Misrdan kelgan olimi dini zamoni, Peterburgdan keladigan olimi dunyoviy zamoni bo'lib din va millatimizni dunyo va oxiratda obod bo'lishimizga sabab bo'ladilar, deb hisobladi. Peterburgdagi tibbiyat, huquqiya, hikmiya va adliya maktablarida o'qitganlarimiz tabib, muallim, ahli huquq va hokim bo'lib davlat ishlariga va hukumat mansablariga aralashib sizga naf etkurur. Bu ilmlardan o'qib, boyon bo'lgan podsholik mansablariga kirib din va millat, vatan va davlatga xizmat qilishni shariat aslo man qilmaydur [2], deb yozadi.


Behbudiy butun vujudi bilan muallim edi. Uning o'zi ham yuqori sinf talabalariga jo'g'rofiya va tarixdan saboq berar. Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan turli yangi-yangi kitoblarini yuqori sinf o'quvchilariga hamda eng yaxshi o'qiganlarga hamda muallimlarga tortiq qilardi. U ne qilsa ulug' Turkiston uchun va uning kelajagi bo'lgan yoshlar uchun qilardi.

1917 yilning 16-23 aprelida Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining Quroltoyida millatni o'zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo'lida birlashishga, ittifoq bo'lishga chaqiradi. Ammo u o'z orzulariga erisha olmadi. Behbudiy 1919 yil 25 martda ana shu g'oyalari uchun millatchi jadid sifatida ayblanib, Shahrisabzda qamoqqa olinadi va qatl etiladi. U o'limi oldidan qilgan vasiyatida: «Biz o'z qismatimizni bilamiz. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt saodati uchun qurbanlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz.... mumkin qadar ko'proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq baxt-saodatini ta'minlash sohasida tinmay ishlash bizga haykal bo'ladi»[3]deb yozib qoldirgan edi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.B. Qosimov "Milliy uyg'onish" T, "Sharq" 2000 y. 53-bet
- 2.Jumayeva Sh. S. The Role of Popular Culture in Youth Educathion. Miasto Przyszłości Kielce 2022. Vol. 29 (2022): *Miasto Przyszłości*. pp. 4950
3. Jumaeva Shakhlo Suyunovna, Kayumova Sevinch Abdukosim's. The Culture of Reading as a Phenomenon of Spiritual Life. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. Volume:2 Issue:5|2023.84-85pp.
4. Jumayeva Shaxlo Suyunovna . SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT AND ITS INFLUENCE ON UPBRINGING AND EDUCATION International Journal of Formal Education 2 (11), 349-354.

5. Mrochko L.V., "The Culture of Reading as a Spiritual Value and a Social Problem of Youth," Vestn. Moscow State Acad. Business Administration Ser.: Philosopher, Social, and Nature Sciences, 2012.
6. Jumayeva Shaxlo Suyunovna. IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA INNOVATION FAOLIYATNING AXAMIYATI. Interpretation and researches, 2024.6/5.
7. Jumaeva Shakhlo Suyunovna. Combination of Mythological, Religious and Philosophical Worldviews WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal 2 (5), 270-273.
8. Jumayeva, S. S. (2024). MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 64-69.
9. Suyunovna, J. S. (2023). THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 114-117.
10. Suyunovna, J. S. (2021). MA'NAVIY YUKSALISH YO'LIDAGI TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 186-194.



**INNOVATIVE
WORLD**

YOSHLAR TARBIYASIDA BOBUR MEROSINING O'RNI

Ismoilova Farangiz Alisher qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM

1-kurs talabasi

smlvfarangiz@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada vatandoshimiz, buyuk shoir hamda sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida gap ketar ekan, uning ma'naviy me'rosi milliy tarbiyamizning asosi bo'lib qoladi.

Kalit so'zlar : ma'naviyat, ta'lif, tarbiya, musiqa, she'riyat, vatan

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonzlarni chuqur taxlil qilib, ularning bu borada qanday o'rinn tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi [1:29].

Xalqimizda azaldan o'z milliy an'analargi sodiqlik, ma'naviy qadriyatlarni ulug'lash xususiyatlari ustunlik qilib kelgan. Bu xususiyat, ayniqsa, mustaqillikdan keyingi davrda o'zining to'la namoyon qilmoqda. Bu buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy va madaniy boyliklarga yuksak muhabbat va hurmat nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishda o'z aksini topmoqda.

Xalqimiz tarixida ijtimoiy-madaniy hayotning ko'pgina sohalarida muhim rol o'ynagan yirik siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Zahiriddin Muhammad Bobur har jihatdan kamol topgan, beqiyos iste'dodga egaligi bilan har qancha e'zozlashga, ardoqlashga arziyadigan dilbar shaxsdir. Uning hayoti o'ta notinch va sarson-sargardonlikda kechgan bo'lsa ham, o'zining zo'r irodasi hamda salohiyati tufayli ham siyosat bobida, ham ijod bobida buyuk ishlarni amalga oshira oldi. Bobur asarlarini ingliz tiliga tarjima qilgan tarjimon Eduard Xolden uning bu xususiyatlarini hisobga olib: "Bobur fe'li-sajiyasiga ko'ra Sezarga qaraganda sevishga arzigulikdir", deb bekorga ta'rif bermagan. U siyosat bobidagi faoliyatida buyuk sarkardalik qobiliyatining isboti sifatida ulkan bir saltanatga asos solgan bo'lsa, ijodkorlik va bunyodkorlik sohasidagi faoliyati ham bundan kam emas.

Bobur o'zbek va tojik tillarida ijod qilgan zullisonayin shoir sifatida shuhrat topgan. U o'zbek tilida yozgan she'rlarini to'plab, 1519 yilda Kobulda, 1528-1529 yillarda Hindistonda devonlar tuzgan. Bu devonlar o'sha tuzilgan joyning nomi bilan "Kobul devoni" va "Hind devoni" deb atalgan. Turli sabablarga ko'ra "Kobul devoni" bizgacha etib kelmagan. Uning taqdiri

noma'lumligicha qolmoqda. Shoiring adabiyotimizga ma'lum bo'lgan she'rlarining umumiyligi miqdori 400 dan ortiq bo'lib, shundan 119 tasi g'azal janrida, 231 tasi esa ruboiy janrida yozilgan. Qolganlari tuyuq, qit'a, muammo, masnaviy, fard kabi rang-barang janrlardan tashkil topgan.

Boburning merosi ko'p qirralidir. U ham shoir, ham prozaik bo'lgan. U musiqa, she'riyat hamda harbiy ish bo'yicha ilmiy traktlar yozgan. Fanning tarix, geografiya, irrigasiya, flora, etnografiya va boshqa sohalari haqida qimmatli ma'lumotlar bergen. U o'z zamonasining ijtimoiy sharoitini, adabiyot va umuman madaniyatning ahvolini va g'oyaviy oqimlarni tahlil qilgan, katta-katta hodisalarga, davlat, siyosiy ham madaniyat arboblarining etakchilariga muhim tavsiflar bergen, jamiyatning ko'pgina kamchiliklarini ro'y-rost ko'rsatib bergen.

Bobur she'rlarining ma'lum qismi hasbi hol, ya'ni muallifning o'z ahvolini bayon qilishdan iborat bo'lib, u shoir hayotining muyyan bir lavhasi, qirrasi bilan bog'lanib ketadi. Shu jihatdan ham uning she'rlari o'ziga xos yozilish tarixi va ta'rifiga ega. Bobur she'rlarini o'qir ekanmiz, ularning bir qismi adabiyotimizning o'sha davriga xos bo'lgan an'anaviy mazmunda yozilganligini guvohi bo'lamic. Lekin shunday bo'lsa-da, shoir she'rlarining diyarli barchasida o'ziga xos samimi tuyg'ular va shakliy soddalikni ko'ramiz. Bobur she'rlarining o'ziga xos bir jihat borki, u ham bo'lsa, ularning Vatan tuyg'usi, ona-Yurt sog'inchi kabi ham botiniy, ham zohiriylar bir ihtiros bilan yo'g'irilganligidir. Jumladan, uning quyidagi ruboysiida o'z Vatanidan ayrilib, boshqa yurtlarda sarson-sargardon kezib yurganligi, yurtga qaytish istagi unga tinchlik bermasligi, lekin qaytish uchun ixtiyor o'zida emasligini she'riy satrlarda ifodalanganligini ko'rish mumkin:

Ko'pdan berikim, yoru diyorum yo'qtur,

Bir lahzau bir nafas qarorim yo'qtur.

Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,

Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Garchi Bobur ruboyisida o'zga yurtlarga o'z ixtiyorim bilan keldim, deb aytsa-da, aslida u o'z Vatanidan bosh olib ketishga majbur bo'lgan edi. Shoир taqdirdan noliydi, o'z yurtiga sig'may, qaror topolmasligidan o'zini baxtsiz, tolesiz, deb hisoblaydi. Tolesizlik bilan chiqisha olmagan yosh hukumdon noiloj o'z yurtini tark etadi, alam bilan, dastlab, Kobulni, keyinchalik, Hindistonni zabit etadi. Lekin katta saltanat va sar-hisobsiz mol-mulklar uning ko'ngliga taskin bermaydi, begona yurt unga "o'z eri"dek – Vatanidek aziz va qadrdon tuyulmaydi. Aksincha, u "Hind sori" borishni o'zi istamagan holda amalgaloshirgan xato ish, noto'g'ri ish ekanligini va bundan uning "yuzi qora" bo'lganligini o'z she'rida afsus-nadomat bilan tasvirlaydi:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.

O'z erni qo'yib Hind sori yuzlandim,

Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Bobur ham boshqa temuriyzoda hukmdorlar kabi yurt surash istagida edi. Buyuk bobosiga munosib bo'lib, poytaxti Samarqand bo'lgan buyuk sultanatni qayta tiklash ishqida yonardi. Dastlabki mag'lubiyatlardan charchagan yosh hukmdor oxir oqibat o'z yurti sarhadidan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Lekin uning qalbida Vatanga qaytish va o'z ona-Yurtida sultanat tiklash istagi hech qachon so'nmadidi. U sultanat orzusida yashadi, lekin mol-mulk orzusida emas. U Vatan ishqida qudratli qo'shin toplashga harakat qildi, lekin boylik toplash ishqida emas. U shoir sifatida bu hissyotlarini o'z she'rlerida jlonlantirdi:

Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,
 Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.
 Kobulda iqomat qildi Bobur, dersiz,
 Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

She'rdan ko'rindan, demak shoir erkin, ammo pul, boylik topish uchun o'zini xarob qilib yurgani yo'q, u mol-dunyo yig'ishdek tuban ish bilan mashg'ul ham emas, u bir umur Kobulda yashab qolib, shu erda yurt surish niyatida ham emas, balki u o'z yurti, o'z Vataniga qaytish niyatidan hech qachon qaytgan emas.

Xalqimizda shunday naql bor: "Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilar, baliq bilmasa, xoliq bilar". Har qanday holda ham yaxshilik qilmoq, ammo bu yaxshilikni minnat qilmaslik g'oyasi buyuk Navoiyda bo'lgani kabi, Bobur ijodiy falsafasining ham asosiy yo'nalishini belgilab bergen. Zeroki, uning:

Bori elga yaxshilik qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,

Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig', -

deb yozishi shundan dalolat beradi. Shoir boshqa bir she'rida bu fikrni davom ettirib, ezgulik timsoli bo'lgan vafo va sadoqat, yaxshilik tushunchalarini yovuzlik timsoli bo'lgan vafosizlik, jafo - yomonlik tushunchalariga qarshi qo'yib, ularning oqibatlarini quyidagicha ifodalaydi:

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,


Har kimki, yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

Umuman, buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning ijodida barq urub turgan Vatanga va insonga sadoqatli bo'lish g'oyasi barcha davr avlodni uchun ibrat sabog'i bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat. 2008.
2. Bobur Z.M. Boburnoma. Toshkent: O'zbekiston FA nashriyoti, 1960.
3. Jumaeva Shakhlo Suyunovna, Kayumova Sevinch Abdukosim's. The Culture of Reading as a Phenomenon of Spiritual Life. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. Volume:2 Issue:5|2023.84-85pp.

4. Jumayeva Shaxlo Suyunovna .[SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT AND ITS INFLUENCE ON UPBRINGING AND EDUCATION](#)
International Journal of Formal Education 2 (11), 349-354.
5. Mrochko L.V., "The Culture of Reading as a Spiritual Value and a Social Problem of Youth," Vestn. Moscow State Acad. Business Administration Ser.: Philosopher, Social, and Nature Sciences, 2012 .
6. Jumayeva Shaxlo Suyunovna.[IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA INNOVATION FAOLIYATNING AXAMIYATI](#). Interpretation and researches, 2024 .6/5.
- 7.Jumaeva Shakhlo Suyunovna..[Combination of Mythological, Religious and Philosophical Worldviews](#) .WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal 2 (5), 270-273.
- 8.Jumayeva, S. S. (2024). MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI. *GOLDEN BRAIN*, 2(20), 64-69.
9. Suyunovna, J. S. (2023). THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 114-117.
10. Suyunovna, J. S. (2021). MA'NAVIY YUKSALISH YO'LIDAGI TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 186-194.



**INNOVATIVE
WORLD**

IBN SINO ASARLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINING TARG'IB QILINISHI

Zokirova Farangiz Botirovna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM
1-kurs talabasi, rufbutaeva8@gmail.com

Markaziy Osiyo uyg'onish davrida etishib chiqqan allomalardan biri Buxorolik etuk olim Ibn Sinodir. Inson mavjudligini, undagi siyratlarni tabiat bilan aloqadorligini o'zining ko'pgina asarlarida tahlil qilgan. O'rta asrlarda yashagan allomalarimiz borliqni, insonning bu olamdag'i o'rnini aniqlashga o'z ilmiy salohiyatlarini qaratganlar.

Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" kitobida inson tanasi haqida yozilgan qadimigi dunyo va antik davirning barcha asarlarni tahlil qilib, bu yo'nalishdagi o'z fikrlarini bildirgan. Insondagi sog'lom turmush tarzi tarbiya bilan bog'langan, ya'ni har bir inson o'zidagi jismoniy sifatlarni shakillantirish va o'stirib borish uchun yoshlikdan jismoniy harakatlar bilan shug'ullanishi va uning ahamiyatiga alohida e'tibor bergen.

Ibn Sino insonning sog'lom o'sishida undagi harakatlarning doimiyligi va davomiyligiga turmush tarzidan kelib chiqib shahar aholisi, alohida mehnat turlariga, inson yoshiga qarab tavsiyalar bergen. Insondagi harakatlar undagi ichki a'zolar bilan birga, uning butun tanasining sog'lom rivojlanishiga ta'sir qilishini Ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida misollar bilan ilmiy tahlil qilgan. Yoshlikdan harakatni o'z turmush tarziga kiritgan inson tanasidagi o'zgarishlarning ijobjiy tomonga o'tishini O'rta asrlarda mahalliy o'lkada yashagan oilalarning turmush tarzidan, ulardagi oila a'zolarining faoliyati, ovqatlanishi, dam olishi, uyqusining o'z vaqtida bo'lishi orqali tavsiya qilgan. Insonlarning o'z vaqtida, me'yori bilan ovqatlanishi va ularning tarkibida tabiiy maxsulotlarning etarli bo'lishi ham sog'lom turmush tarzining shakllanishida o'z o'rniga ega ekanligi alloma tomonidan keng tahlil qilingan.

Ibn Sino xar bir insonning anatomik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda "jismoniy mashq kishini ketma-ket chuqur nafas olishga majbur qiladigan ixtiyoriy harakatdir", - deb jismoniy mashg'ulotga ta'rif beradi. Shuning uchun ham Ibn Sino jismoniy mashq bilan muttasil shug'ullanadigan odamning tanasi juda mustahkam bo'lib, har qanday kasalliklarni engib o'tishga qodir bo'lishini isbotlashga harakat qilgan. Uning "me'yoriy sur'atda va o'z vaqtida jismoniy mashq bilan shug'ullanuvchi insonlarning ichki va tashqi a'zolaring yaxshi rivojlanganligi tufayli kelgan kasalliklarning da'vosiga muhtoj bo'lmaydi", degan fikri diqqatga sazovordir. Shuningdek, jismoniy mashq bilan shug'ullanib yurgan kishi birdaniga tartibni buzsa, salomatligiga zarar keltiradi degan fikrni bildirgan. Demak agar inson jismoniy mashqlar bilan shug'ullanayotgan bo'lsa uni birdaniga to'xtatib qo'yish yaxshi natijalarga olib kelmasligini alloma ko'rsatib o'tgan. Ibn Sino o'z

kitobida bunday insonlar bo'yicha quyidagi fikrni bildirgan "kishi, ko'pincha ingichka ichak og'riq kasaliga uchraydi".

Mutafakkir jismoniy mashq bilan muntazam shug'ullanadigan odamning organizmida keraksiz moddalar to'planib qolmasligini, badandagi tabiiy issiqqliklarning oshirishini va tanani engil, chaqqon bo'lishini isbot qilib bergen. Ibn Sino o'zining mukammal asari "Tib qonunlari"ning bиринчи kitobida jismoniy mashg'ulotni kishining yoshiga, sihat-salomatligiga va kasalligiga qarab, turlicha shakl va usullarda o'tkazish kerakligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik chog'larida kishi jismoniy mashg'ulotga turlicha munosabatda bo'lishi kerakligi masalasini ko'tarib chiqib ilmiy dalillar bilan asoslab beradi.

Inson tanasini chiniqtirish va taraqqiy ettirishda tabiat kuchlari (quyosh, havo, suv)dan foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligini, jismoniy mashqning kishidagi sezgi organlarini taraqqiy ettirishi uchun ham katta o'rin tutishini isbot qilib bergenligini ko'ramiz.

Ibn Sino jismoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarda faqat jismoniy mashq tushunchasiga ta'rif beribgina qolmasdan balki, uning har xil turlari borligini va ulardan qanday qilib foydalanish kerakligini ham ko'rsatib o'tadi. Ibn Sino jismoniy mashg'ulot haqida gapirar ekan, uning kishi tanasiga foydasini muhim ekanligini ta'kidlaydi va jismoniy mashg'ulotga odamning ish jarayonida qiladigan harakatlari va maxsus jismoniy mashq harakatlari kiradi, degan fikrni ilgari suradi. Maxsus jismoniy mashqlarni Ibn Sino quyidagicha tasniflaydi: "Kichik yoki katta, juda tez yoki sust mashqlar bo'ladi".

Alloma tez harakatlarga: tortishish, musht bilan turtishish, tez yurish, nayza otish, qilichbozlik va nayzabozlik, otta yurish, bir oyoqlab sakrashlarni kiritgan. Juda muloyim va engil mashqlarga: arg'imchoqlarda uchish, qayiq yoki kemalarda sayr qilishni kiritadi. Kuchli mashqlarga esa: tosh ko'tarish, otga va tuyaga minish, aravalarda yurishni kiritadi.

O'rta Osiyo xalqlari orasida, boshqa ko'pgina xalqlardagi kabi qadim zamonlardan buyon kurash keng tarqalib kelgan. Kurash kishi tanasini chiniqtirishda juda katta o'ringa ega. Ibn Sino shuning uchun ham sportning bu turiga juda katta ahamiyat berib, uning har xil turlarini yozib qoldirgan. Milliy kurashning bir turiga quyidagicha ta'rif bergan: "Kurashayotgan kishining biri raqibining o'ng qo'li tagidan, o'ng qo'lini chap qo'lining tagidan o'tkazib uni quchoqlaydi. Keyinchalik raqibini o'ziga tortadi va uni o'ng yoki chap tomonidan tashlaydi. Shunda kishi yoki bukiladi, yo qaddini rostlaydi".

Mutafakkir kurashning yanada boshqa ko'pgina xillarini ko'rsatadiki, xalq orasida mavjud bo'lgan bu kurash shakllarini umumlashtirib, xalqlar orasida targ'ib qilgan. Ibn Sino ko'rsatgan kurash usullari O'rta Osiyo xalqlari orasida hozirgacha saqlanib kelmoqda. Ibn Sino kishi organizmidagi har bir a'zo o'ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun ham har bir a'zoni chiniqtirishda alohida mashqlar tanlash va undan foydalanish zarur, deb ko'rsatgan. Jumladan, ko'krak qafasi muskullarini va nafas olish organlarini chiniqtirish uchun past, goho baland tovush chiqarish zarur, buning bilan

faqat ko'krak qafasi nafas organlarigagina emas balki, og'iz, til ham harakatga keladi, ular ham mashq qildirilishi natijasida taraqqiy etib boradi. Bundan tashqari nafas olish va chiqarish bilan kishining barcha a'zolari mashq qiladi, qon tomirlari kengayadi, deb ta'kidlaydi.

Buyuk mutafakkirlarimizning yoshlar aqliy va jismoniy kamoloti to'g'risidagi dono fikrlari, ibratomuz so'zları, ko'p ma'no pand-nasihatlari hozir ham o'z kuchini yo'qotmay kelmoqda. Bu fikrlar yoshlarni tarbiyalashda, ma'naviyatning yuksalishida muhim ahamiyatga egadir zero, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlanganidek: "Vatanimiz kelpajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak".

bilan bog'lamasdan, uni milliy qadriyatlar bilan ham uyg'unlashtirgan. U o'zbek xalqining tarixini, madaniyatini, adabiyotini va an'alarini hurmat qilishni marifatning ajralmas qismi deb bilgan. Avloniy milliy g'oyalarni rivojlantirishda ta'lim va ma'rifikatni asosiy vosita sifatida ko'rgan. U marifatni millatni yuksaltirishning asosiy vositasi sifatida ko'rsatgan. Abdulla Avloniying she'rlari 15 yoshidan matbuotda chiqqa boshlagan, va bu hozirgi yosh avlodni o'qishga izlanishga chorlaydi chunki 13 yoshda ham o'qib, ham ishslash aynan bugungi yoshlarni serg'ayrat bo'lishga undovchi kuch bo'lib hizmat qiladi. Avloniy 1904-yilda jadidchilarining yetakchilaridan biri bo'lib, 1909-yilda "Jamiyati hayratiya" tashkilotini tuzdi. 1905—1917-yillarda u o'zining publitsistik maqolalari bilan matbuotda faol qatnashib, "o'zgarishlar urug'ini" sochdi. 1907 yilda Avloniy "Shuhrat" gazetasini ochadi. O'qishdan so'ng u pedagogikani o'rganadi hamda yangi maktab tizimini yaratadi shundan so'ng Sharq va G'arb tillarini o'qitishni taklif qildi. Bugungi kunda Avloniying pedagogik g'oyalari, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va jamiyatni yuksaltirish borasida qo'llanilmoqda. Avloniy XX asrning mashhur allomalaridan biri bo'lib, uning ilmiy, adabiy va pedagogik faoliyati o'z davrida katta ahamiyat kasb etgan. Maqolada uning hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyati, yaratgan asarlari, pedagogik qarashlari va jamiyatga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Avloniying shaxsiyati, uning adabiyot va madaniyatga bo'lgan yondashuvi tahlil qilinadi. Abdulla Avloniying hayoti va ijodi O'zbekistonda hamda butun Turkistonda katta ahamiyatga ega bo'lgan. U o'zining ilmiy, adabiy va pedagogik faoliyati bilan nafaqat o'z zamonida, balki hozirgi kunda ham katta iz qoldirgan. Avloniy o'zining ijodiy faoliyatida o'zbek tilini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan va xalqni ma'rifatli, ilmlli qilishni o'zining asosiy maqsadi deb bilgan. Shu bilan birga, uning ta'lim tizimi va pedagogik g'oyalari o'z zamonining eng ilg'or fikrlarini o'zida mujassam etgan. Avloniying hayoti va ijodi haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsada, uning faoliyatining turli jihatlarini yangi va keng qamrovli nuqtai nazardan o'rganish juda muhimdir. Avloniy nafaqat yozuvchi, balki ilm-fan sohasida ham katta ishlarga qo'l urgan. Uning ilmiy ishlari asosan tilshunoslik, adabiyot va pedagogika sohalarini qamrab oladi.

Avloniy o'z asarlarida ta'limni faqat bilim olish jarayoni sifatida emas, balki axloqiy, ma'naviy va ma'rifiy tarbiya manbai sifatida ko'rsatgan. Uning pedagogik yondashuvlari, yoshlarni o'z qarashlariga ta'sir o'tkazgan. Avloniy o'zining "Tarbiya" nomli asarida ma'naviyatni jamiyatning yuqori qadriyatiga aylantirish, bilimni insoniyatning farovonligi uchun vosita sifatida ko'rish g'oyalarini ilgari surdi. Avloniying adabiy merosida milliy g'oyaning yuksalishi. Abdulla Avloniy o'z asarlarida milliy g'oyani rivojlantirishni asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilagan. U o'zbek xalqining madaniy va ma'naviy o'zligiga hurmat bilan qaragan va shu asosda milliy adabiyotning rivojlanishiga xizmat qilgan. Avloniying asarlari nafaqat pedagogik yondashuvlar, balki xalq orasida milliy g'oyani shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Avloniy o'z vaqtida o'zbek xalqining o'tmishi,

an'analari va madaniyatiga e'tibor qaratgan. U o'z asarlarida xalqning madaniy merosini saqlab qolish va uni yosh avlodga etkazish zarurligini urg'ulagan. Bu uning asarlariga ma'naviy yuksalish va milliy uyg'onish g'oyalarini kiritgan.Avloniyning o'qituvchilik faoliyati va pedagogik yondashuvlari.Abdulla Avloniy o'zining o'qituvchilik faoliyatida ham innovatsion yondashuvlar qo'llagan. U o'zining pedagogik tizimida faqat akademik bilimlarni o'rgatish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarni axloqiy, ma'naviy va estetik jihatdan ham rivojlantirishga intilgan. Avloniyning pedagogik yondashuvlari nafaqat bilim o'rgatish, balki shaxsning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan edi. Uning o'qituvchilik faoliyati davomida o'quvchilarni faoliyatga undagan, darslarni interfaol tashkil etgan. Bu jarayon bolalarda o'z fikrini ifodalash, savollar berish va masalalarni mustaqil yechish qobiliyatlarini rivojlantirgan. Avloniy ta'limda zamonaviy pedagogik metodlar va yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llashga harakat qilgan.Abdulla Avloniy asarlarining jamiyatga ta'siri.Avloniyning adabiy merosi nafaqat o'zbek adabiyotida, balki butun turkiy xalqlar adabiyotida katta ta'sir o'tkazgan. Uning asarlari milliy madaniyatning rivojlanishiga, o'quv jarayoniga va pedagogika sohasiga yangi yondashuvlar olib keldi. Avloniyning ilm-fanga bo'lgan katta hurmati va uning o'quvchilarni yuqori ma'naviyatli insonlar sifatida tarbiyalashdagi sa'y-harakatlari uni zamonining eng buyuk yozuvchilari va ma'rifatparvarlari qatoriga qo'shdi. Avloniy o'zining adabiy va pedagogik faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llagan. Uning pedagogik uslubi jamiyatning o'zgarishlariga mos ravishda, yangi avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynagan. Avloniy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni, o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashini targ'ib qilgan.

U an'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda, interfaol va muloqotga asoslangan metodlarni qo'llagan. Bu yondashuvlar bolalarning o'z fikrlarini ifodalashga, masalalarni mustaqil yechishga va jamoaviy ishlashga o'rgatgan. Abdulla Avloniy o'zbek adabiyotining rivojlanishida, ta'lim tizimining yangilanishida va xalqni ma'rifatli qilib tarbiyalashda katta rol o'ynagan shaxsdir. Uning adabiy faoliyati va ta'limga bo'lgan hissasi bugungi kunda ham dolzarbdir. Avloniy nafaqat adabiyotda, balki ta'lim va ma'naviyatni rivojlantirishda ham innovatsion yondashuvlarni qo'llagan. Uning asarlari, maqolalari va pedagogik yondashuvlari zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishiga va yoshlarni ma'naviy jihatdan boyitishga katta hissa qo'shgan

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki Abdulla Avloniy o'zining adabiy va ilmiy faoliyati orqali nafaqat o'z davrining, balki keyingi avlodlarning ham ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning asarlari o'zbek milliy adabiyotining shakllanishida, ta'lim tizimining rivojlanishida va yangi avlodni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Avloniyning pedagogik yondashuvlari va adabiy merosi, ayniqsa, o'zbek ta'limining rivojlanishiga hissa qo'shgan va uning fikrlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Uning asarlari

va ma'naviy merosi yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirishda, yoshlarni tarbiyalashda va milliy g'oyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avloniy, A. (1914). *Tarbiya*. Toshkent: Ma'rifat.
2. Karimova, M. (2020). *Abdulla Avloniy va uning pedagogik yondashuvlari*. Toshkent: O'zbekistan Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
3. Raximov, I. (2018). *O'zbek ma'rifati: Abdulla Avloniyning roli*. Toshkent: Ilm va texnika.
4. Xamidov, S. (2021). *Abdulla Avloniyning adabiy merosi va uning jamiyatdagi ta'siri*. O'zbekiston adabiyoti jurnali, 4(2), 45-53.
5. Tursunov, O. (2019). *Ma'rifat va ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan o'zbek adiblari*. Toshkent: Yangi avlod.



TASVIRIY SAN'AT FANINI TALABALARGA O'QITISHDA KREATIV METODLAR

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

oltinoyadhamova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at fanini talabalarga o'qitishda kreativ metodlarning ahamiyati va ularning samarali qo'llanilishi muhokama qilinadi. Kreativ metodlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, tasviriy san'at sohasida chuqur tushuncha hosil qilishga yordam beradi. Maqolada o'qituvchilarga tasviriy san'at darslarida innovatsion va amaliy usullarni qanday qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi. Shuningdek, kreativ yondoshuvning dars jarayonida o'quvchilarning san'atga nisbatan qiziqishini oshirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Kalit So'zlar: Tasviriy san'at, kreativ metodlar, o'qitish usullari, innovatsion pedagogika, ijodiy fikrlash, amaliy metodlar, san'at ta'limi.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность творческих методов и их эффективное использование при обучении студентов изобразительному искусству. Творческие методы помогают развивать творческое мышление учащихся, формировать глубокие представления в области изобразительного искусства. В статье предлагаются рекомендации учителям по использованию инновационных и практических методов на занятиях изобразительным искусством. Также рассматривается роль творческого подхода в повышении интереса учащихся к искусству в ходе урока.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, творческие методы, методы обучения, инновационная педагогика, творческое мышление, практические методы, художественное образование.

Abstract: This article discusses the importance of creative methods and their effective use in teaching visual arts to students. Creative methods help to develop students' creative thinking, to form a deep understanding in the field of visual arts. The article offers recommendations to teachers on how to use innovative and practical methods in visual arts classes. Also, the role of creative approach in increasing students' interest in art in the course of the lesson is considered.

Keywords: Visual arts, creative methods, teaching methods, innovative pedagogy, creative thinking, practical methods, art education.

KIRISH

Tasviriy san'at fani talabalarga vizual tasvirlar, ranglar, kompozitsiya va boshqa san'at elementlari orqali dunyoni anglashni o'rgatadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondoshuvlar va metodlar talab qilinadi, chunki ular o'quvchilarning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat

qiladi. Kreativ metodlar esa o'qitish jarayonida yangi, samarali va qiziqarli usullarni qo'llashni nazarda tutadi. Bu maqolada tasviriy san'at fanini o'qitishda kreativ metodlarning o'rni, uning afzalliklari va amaliyotda qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Tasviriy san'atni o'qitishda kreativ metodlarning ahamiyati. Kreativ metodlar o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirishga va ularning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi. O'quvchilarga san'atni nafaqat nazariy, balki amaliy tarzda o'rgatish ularning san'at asarlarini yaratishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Shuningdek, kreativ metodlar o'quvchilarga keng turdag'i san'at asarlari va ularning turlari haqida to'liq tushuncha hosil qilishga yordam beradi. Tasviriy san'atda kreativ yondoshuvlar. Tasviriy san'at darslarida kreativ metodlarni qo'llash o'quvchilarga yangi yondoshuvlar va texnikalarni o'rganishga yordam beradi. Bunga quyidagi yondoshuvlar kiradi:

- Eksperimental ishlanmalar: O'quvchilarni ranglar, shakllar va materiallar bilan tajriba qilishga undash. Bu metod ijodiy erkinlikni ta'minlaydi.
- Mashq va amaliyotlar: Amaliy ishlanmalar orqali o'quvchilar o'z ijodiy qobiliyatlarini oshirishadi, yangi texnikalar bilan ishlashga o'rganishadi.
- Kompozitsiyani o'rganish: Kompozitsiya asoslari, shakllar va proportsiyalarini o'rgatish, ularning o'zaro aloqasini tushunishga yordam beradi.
- Tadqiqot asosida darslar: O'quvchilarga tasviriy san'at asarlarini yaratish uchun tarixiy va madaniy tadqiqotlar olib borish.
- Loyihalash usuli: O'quvchilar o'z san'at asarlarini rejalashtirish, yirik loyihalar yaratishda ijodiy jarayonlarni kuzatish. Kreativ metodlarning ta'limga afzalliklari. Kreativ metodlar talabalarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi, chunki ular o'quv jarayoniga faol ishtirok etishga undaydi. Buning natijasida o'quvchilar o'zlarining tasviriy san'atga bo'lgan qarashlarini va tushunchalarini o'zgartiradilar. Kreativ metodlar:
- Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va erkin ifodalashga o'rganadilar.
- Vizual tasavvurni kuchaytiradi: O'quvchilar ranglar, shakllar va kompozitsiyalarini yaratishda o'z tasavvurlarini kengaytiradilar.
- Ko'p yo'nalishli o'rgatishni ta'minlaydi: Kreativ metodlar har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olib, o'qitish jarayonini moslashtirish imkoniyatini beradi.
- Empatiya va hissiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi: San'at orqali o'quvchilar boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tushunishadi va empatiya ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Kreativ metodlarning qo'llanilishi: amaliy ,misollar

a. Ranglar bilan ishslash

O'quvchilarga ranglar palitrasidan foydalanish va ranglar kompozitsiyasini yaratish bo'yicha mashqlar berish. Masalan, "Ikkita asosiy rangdan yangi rang

yaratish" yoki "Ranglar yordamida kayfiyatni ifodalash" kabi mavzularni ishlash.

b. Tasviriylar san'at tarixi bilan bog'lash

O'quvchilarga mashhur san'at asarlarini tahlil qilish va ularning yaratish jarayonini o'rganish. Bu metod tarixiy va madaniy kontekstni tushunishga yordam beradi.

c. Fikrni mustahkamlash uchun guruuhlar

O'quvchilarni guruhlarga bo'lib, bиргаликда san'at asarini yaratishga undash. Bu nafaqat ijodiy jarayonni rivojlantiradi, balki hamkorlikda ishslash ko'nikmalarini ham oshiradi.

d. Modern texnologiyalarni joriy etish

Dasturlar va ilovalar orqali san'at yaratish, masalan, dijital rasm yoki grafik dizayn dasturlaridan foydalanish. Tasviriylar san'at fanida kreativ yondashuv – bu o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish metodlari va usullarini ifodalaydi. Kreativ yondoshuvlar, an'anaviy darslar metodlaridan farq qilib, o'quvchilarga san'at asarlarini yaratishda o'ziga xos yondoshuvlarni sinab ko'rish va yangi texnikalarni o'rganishga imkoniyat yaratadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning tasviriylar san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning ijodiy va vizual tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi. Kreativ metodlar o'quvchilarni nafaqat rasm chizish yoki ranglar bilan ishslashda, balki tasavvurlarini erkin ifodalashda ham qo'llab-quvvatlaydi. Kreativ yondashuvni tasviriylar san'at fanida qo'llashning asosiy maqsadi – bu o'quvchilarning san'atni faqat ko'rish yoki yaratish bilan bog'lamasdan, ular uchun yangi, innovatsion va interaktiv tajribalar yaratishdir. Bunda quyidagi aspektlarga e'tibor qaratiladi: San'atni o'qitishda kreativ yondashuv o'quvchilarga o'zlarini erkin ifodalashga imkon beradi. Bunday yondashuvda o'quvchilar asar yaratishda tajriba qilishadi, yangi texnikalar va usullarni sinab ko'rishadi. Masalan, ranglar palitrasini o'zgartirish, yangi materiallardan foydalanish, yoki o'z asarlarini yaratishda o'z shaxsiy tushunchalarini aks ettirish imkoniyatlari yaratiladi. Kreativ yondashuv shuningdek, san'at asarlarini faqat ko'rib chiqish bilan cheklanmaydi, balki ularni tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarga mashhur san'at asarlarini o'rganish va ularning yaratish jarayonini tushunish, o'z asarlarini yaratishda ilhom olishda yordam beradi. Bu yondoshuv o'quvchilarda estetik va analitik fikrlashni rivojlantiradi. Kreativ metodlar o'quvchilarga turli usullarda ishslashni o'rgatadi. Masalan, rasm chizishning oddiy texnikalaridan tashqari, o'quvchilarni qo'lda ishslash, kollaj yaratish, yoki raqamli san'at yaratish kabi innovatsion texnikalarni sinab ko'rishga undaydi. Eksperimentlar o'quvchilarga yangi narsalarni o'rganish va san'atda o'z o'zini ifodalashning yangi yo'llarini topishga yordam beradi.

Kreativ yondoshuvning asosiy usullaridan biri – bu o'quvchilarga turli xil mashqlarni taklif qilishdir. Masalan:

- Ranglar bilan ishslash: O'quvchilarni ranglarning hissiy ta'sirini tushunishga va ular bilan turli usullarda ishslashga o'rgatish.

- Kompozitsiya va shakllar: O'quvchilarni kompozitsiya yaratishning asosiy prinsiplari bilan tanishtirish va shu asosda o'z asarlarini qurishga undash.
- Tabiatdan ilhom olish: O'quvchilarga tabiatdan ilhom olish va tabiatning ranglari va shakllarini o'z asarlariga kiritishga undash.Kreativ yondashuvda o'qituvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularni yangi texnikalar bilan tanishtirishda faqat yo'riqchi rolini o'ynaydi. O'quvchilar o'zlari mustaqil tarzda ijod qilishadi, o'qituvchi esa ularga ilhom berib, ular yaratgan asarlarni tahlil qilish va muhokama qilishda yordam beradi.

Bu o'zaro hamkorlik san'at yaratish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.Kreativ yondashuvda san'at faqat tasviriy san'at doirasida qolmaydi. O'quvchilarni boshqa fanlar, masalan, matematika, geometriya, tarix yoki adabiyot bilan bog'lanish orqali san'atni o'rganishga jalb qilish mumkin. Masalan, geometrik shakllardan foydalananib, rasm chizish yoki tarixiy san'at asarlarini yaratishda madaniy va tarixiy kontekstni inobatga olish orqali o'quvchilar san'atni yanada chuqurroq tushunishlari mumkin.

Texnologiyaning rivojlanishi tasviriy san'atda yangi yondoshuvlar va metodlarni taqdim etdi. Raqamlı rasm chizish, 3D modellash, san'at dasturlari va virtual realitet yordamida o'quvchilar o'z ijodlarini yangi usulda ifodalashlari mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratib, ularni san'at va texnologiya o'rtasidagi bog'lanishni tushunishga yordam beradi.Har bir o'quvchi o'ziga xos ijodiy yondoshuvga ega. Kreativ metodlar o'quvchilarni o'ziga xos fikrlash va ijodiy jarayonlarini erkin ifodalashga imkon beradi. Shuning uchun, san'atni o'qitishda individual yondoshuvlarni qo'llash muhimdir. O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlari va iqtidorlarini inobatga olib, ularga turli xil kreativ ishlanmalar va mashqlarni taklif qilishi lozim.Kreativ yondashuv o'quvchilarga san'atni faqat texnik nuqtai nazardan emas, balki hissiy va estetik nuqtai nazardan ham tushunishga yordam beradi. O'quvchilarni san'atga nisbatan ilhomlantirish va ularga san'at orqali o'z histuyg'ularini ifodalash imkonini berish orqali ularning ijodiy salohiyatini to'liq ochishga yordam beradi.

XULOSA

Tasviriy san'atni o'qitishda kreativ metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi va san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Innovatsion yondoshuvlar talabalarga nafaqat san'at texnikalarini, balki ularning o'ziga xos ijodiy qarashlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Kreativ metodlar ta'lif jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi, shuningdek, o'quvchilarning san'atga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Shu sababli, tasviriy san'at darslarida kreativ metodlarni keng qo'llash o'qituvchilar uchun katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Koryagina, T. (2022). Pedagogika va tasviriy san'atni o'qitishning innovatsion metodlari. Oliy ta'lif nashriyoti.
2. Egorova, M. (2021). San'at ta'limi: Kreativ metodlar va ularning o'qitishdagi roli. Ta'lif va madaniyat jurnali.
3. Sharipova, L. (2020). Ijodiy yondoshuvlar va tasviriy san'at. Ta'limda innovatsiyalar.
4. Vasiliev, S. (2023). San'atni o'qitishda kreativ metodlarni qo'llash. Pedagogik yondoshuvlar.
5. Mikhailov, A. (2021). Amaliy san'at va kreativ metodlar. O'quvchilarni tasviriy san'atga qiziqtirish usullari.



Alisher Navoiy asarlarida an'anaviy obrazlar

Luptillayeva Mushtariy

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida an'anaviy obrazlarning o'rni va ahamiyati haqida to'xtalindi. Sharq mumtoz adabiyotida insonlarni tarbiyaga ,odob-axloqqa chorlash asosida asarlar yaratilgan. Bu asarlar xalq og'zaki ijodi namunalarini o'zida mujassam etgan. Davrning mashhur ijodkorlaridan Alisher Navoiy adabiy merosi hozirgi kunga qadar turli darajalarda talqin qilib kelinmoqda. Navoiy asarlarida hamma uchun ma'lum bo'lgan xalqona ohanglardan foydalanilgan. Asarlarining asosiy mazmun-mohiyati insonni komillikka chorlaydi.

Kalit so'zlar: obrazlar, an'ana, sevgi -muhabbat, " Xamsa" dostoni, Farhod obrazi, saxovat, komillik, mifologiya , komillik, payg'ambarlar obrazi.

Obraz va obrazlilik badiiy adabiyot mavjudligining eng asosiy shartlaridan biri. Obraz "inson ongida in'ikos etilgan voqeа-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so'z vositasida san'atkor tomonidan anglangan va qayta ishlangan, tasvirlangan hayot tushuniladi . Buyuk mutafakkir, she'riyat mulkining sultonini mir Alisher Navoiy ijodi bamisol ummondir. Bu ummonga qancha sho'ng'isangiz shuncha inju terasiz. Shoir ijodi bir kema. Bu kemaning cho'qqisi "Xamsa "asari deyish mumkin. Ushbu asar turkiy tildagi ko'lamdir asarlardan biri hisoblanadi. Shoir Alisher Navoiyning nazmiy asarlarida obraz qanchalik yuksak tasvirlangan bo'lsa , nasriy asarlarida ham shunchalik yuksak tasvir etilgan. Alisher Navoiy ijodida turli xil obrazlarni ko'rish mumkin. Bularidan mifologik, tarixiy shaxslar , payg'ambarlar obrazi. Alisher Navoiy asarlarida an'anaviy obrazlar yetakchilik qiladi. Bu obrazlarga sevgi - muhabbat,adolat , saxiylik, to'g'rilik, saxovat , qahramonlik obrazlari kiradi.

An'ana bu adabiyot va san'atning barcha turlariga tegishli bo'lgan ijodiy jarayon. Bunda ijodkor o'zidan oldin ijod qilgan salaflari tomonidan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan mezon qoidalarga asoslanib , ularning ba'zi tomonlarini ijodiy ishlaydi, qayta yaratadi va takomillashtiradi.

Alisher Navoiy "Xamsa"sining ikkinchi dostoni "Farhod va Shirin"da adib bu doston an'anasiga o'zgacha yondashadi . Doston Navoiygacha "Xusrav va Shirin " shaklida mashhurdir. Ularda markaziy timsol shoh Xusrav edi. Lekin u komillikdan yiroq sevgi-muhabbatdan toj-u taxtni ustun qo'yadigan shoh edi. Alisher Navoiy bu an'anaviy obrazga o'zgartirish kiritib "Farhod va Shirin" deb nom bergan. "Farhod va Shirin" dostonida ishq ulug'lanadi, u shunday ishqki insonni poklaydi, komillikka yetaklaydi. Alisher Navoiy Farhod obrazini mana shunday ishqqa, komillikka, yetaklaydigan obraz sifatida shakllantirgan.

An'anaviy obrazlardan biri saxovat haqida Alisher Navoiyning "Mahbub -ul qulub "asarida shunday ta'riflar keltirgan :

"Saxovat insoniyat bobining hosilidor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir ".- deb yozgan. Alisher Navoiy ijodida ishq -muhabbat obrazi yetakchi obrazlardan biridir . Oshiqning ma'shuqaga bo'lgan sevgisi "Farhod va Shirin "va "Layli va Majnun "timsollari orqali yoritilgan.

Navoiy ijodida ishq-muhabbat obrazlari yetakchi obrazlardandir. Oshiqning ma'shuqaga bo'lgan sevgisi "Farhod va Shirin ", " Layli va Majnun" timsollari orqali yoritilgan. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan an'anaviy obrazlardan yana biri podshohlar obrazi. "Bahr-yi Hikmat" asarida, hukmdorlikka erishgan shoirning qahramonlik va adolatsizlikka qarshi kurashini ifodalaydi . Uning asarida podshoh , asosan, ilmiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi va davlat xizmatiga ega bo'lish orqali ustuvor vazifani bajarish bilan tasvir etilgan. "Lison ut -Tayr" asarida podshohning himoyasidagi san'atkorlar va olimlar to'plami yozilgan. Har bir shoir ijodida an'anaviy obrazlarni ko'rish mumkin. Bu obrazlar orqali shoirlar ijodi yuksaklarga ko'tariladi.

"Xamsa" dostonlarida eng ko'p uchraydigani payg'ambarlar obrazlaridir. Buni Iso, Xizr timsolida ko'rish mumkin. Bu narsa islom dini, ayniqsa, Qur'oni Karimda va boshqa muqaddas diniy kitoblar ta'siri bilan bog'liq. Ayni paytda bu an'ana bilan bog'liq. Navoiy o'z his-tuyg'ularini, falsafiy mushohadalari asnosida lirik qahramon kechinmalari, yor ko'rinishi, uning turli sifatlari tasnifi jarayonida bu obrazlarga murojaat etiladi. "Qur'oni Karimda zikr bo'lg'on va hammamizga bilmoq vojib bo'lgan payg'ambarlar 28tadir". Ushbu muqaddas kitobning "Anbiyo surasi"da payg'ambarlar haqida so'z yuritilgan. Diniy manbalarda Odam, Solih, Ibrohim, Yusuf, Muso, Horun, Yunus, Yahyo, Muhammad kabi ulug'lar ham payg'ambarlar sifatida qayt etilgan. Ularning deyarli har biri Navoiy "Xamsa"sida tilga olingan.

Ulug' shoir Alisher Navoiy ijodida ham qadimgi mifologiya va afsonalar chuqur iz qoldirgan . Alisher Navoiy mif va afsonalar bilan turli manbalar bilan tanishgan edi. Bu manbalar tarix kitoblari , badiiy adabiyot , diniy kitoblar va boshqalardan iborat. Shoirning mif va afsonalar bilan tanish bo'lishida " Shohnoma" asari alohida o'rin tutadi. "Shohnoma" asarining yaratilish manbalari asosini xalq mifologiyasi, xalq og'zaki ijodi tashkil qilgan . Navoiy asarlarida uchraydigan mifologik obrazlardan biri dev obrazi bo'lib u hayot va kishilar voqeа va hodisalar, fikr - o'ylari, to'qnashuvda ma'lum o'rin egallaydi. Lirikada shoir fikr va kechinmalarini bayon etishda devdan an'anaviy obraz sifatida foydalanadi.

"Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarida dev mifik-epik obraz bo'lib , u ijobiy qahramonlarning ezgu niyatlariga to'g'anoq bo'ladigan yovuzlik timsoli sifatida tasvirlangan .

Tarixiy obrazlar Alisher Navoiy ijodida alohida ma'suliyat bilan yondashilgan obrazlardan biri hisoblanadi. Chunki, unda tarixiy shaxs, uning siyratiga xos eng muhim xususiyatlar, qahramonning ma'rifiy-ruhiy olami badiiy qayta ishlanadi. Navoiy "Bahr-i Sulton" (Sultonlar Daryosi) asarida


Amir Temur davridagi Temur va uning podshohligi, rahbarligidagi buyuklik kuchiga, adolatiga, shoirlig qobiliyatiga , shaxsiy xususiyatlariga alohida e'tibor bilan qasida yozadi.

Har bir shoir ijodida an'anaviy obrazlarni ko'rish mumkin. . Bu obrazlar orqali shoirlar ijodi yuksaklarga ko'tariladi .

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ishq-muhabbat, to'g'rilik , adolat obrazlari va payg'ambarlar obrazlari Navoiy ijodida shoir asarlarining badiiy mahoratini kuchaytirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. An'anaviy obrazlar shoirga hayotni to'g'ri va teran anglash, boy g'oya va fikrlash imkoniyatini bergen. Alisher Navoiy asarlaridagi har bir obraz yuksaklikka erishgan obrazlar hisoblanadi .

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Sirojiddinov Sh, Yusupov D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. darslik -Toshkent :" Tamaddun ", 2018.
- 2.Xo'jayev T. Navoiy Xamsasi obrazlari, badiiyat mohiyati. -Toshkent 2023.



**INNOVATIVE
WORLD**

O'zbek tilida tinish belgilarining ahamiyati va prasodik xususiyatlari

Akramova Nigina

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tinish belgilarining kognitiv vazifasi yoritib berilgan. Maqolada bundan tashqari o'zbek tilida tinish belgilarining ahamiyati, fikrni aniq ifodalashga va o'qishni osonlashtirishga yordam berishi hamda tinish belgilarining matn mazmunini ochib berishdagi roli haqidagi fikrlar ham mavjud. Maqolada tavsifiy metoddan foydalilanigan. Maqola oxirida xulosa berilgan.

Kalit so'zlar: Nuqta, vergul, so'roq, undov, qo'shtirnoq, tire, ikki nuqta.

Punktuatsiya termini lotincha punctum so'zidan olingan bo'lib, aslda nuqta, o'rinni, joy tushunchalari bilan bog'langan bo'lsa ham, tilshunoslikda nutq oqimidagi intonatsion-prasodik to'xtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilarni yig'indisini (tinish belgilarini) anglatadi. Punktuatsiya tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, tinish belgilari (punktogramma) va ularning qo'llanish qonun-qoidalarini o'rgatadi. Punktogramma muayyan yozuv tizimi (grafika) ning uzviy qismi bo'lib, yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (masalan, raqamlar, harflar, diakritik va transkripsion belgilar kabi) bilan ifodalash mumkin bo'lмаган томонларини aniq belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Tinish belgilari yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi. Punktuatsiya, bir tomondan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi; bir tinish belgi yozuvchi tomonidan qanday ma'no va vazifada qo'llangan bo'lsa, mazkur tinish belgi o'quvchi tomonidan ham xuddi shunday vazifada tushuniladi. Demak, tinish belgilari "Yozma nutqning tushunilishini osonlashtirish uchun qo'llaniladi" (Baduen de Kurtene) va uni oydinlashtiradi, anqlik kiritadi. Tinish belgilarining o'rinni qo'llanmasligi ma'lum bir sintaktik qurilmani ham mazmun, ham tuzilishii jihatidan o'zgarib ketishiga olib keladi.

Nuqta(.) -- eng ko'p qo'llaniladigan va eng qadimiy tinish belgilaridan biri hisoblanadi. Bu tinish belgi, asosan, atov gaplardan keyin qo'yiladi. Masalan: Kumush qish.

Ismi, otasining ismi qisqartirilganda ularning birinchi harfidan so'ng qo'yiladi. Masalan: A. Qodiriy, A.Fitrat kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir.

Ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng ham nuqta qo'llanishi mumkin. Masalan: 08.02.2025.

Vergul(,) -- tinish belgisi ham ko'p qo'llaniladigan tinish belgilaridan biri hisoblanadi. Bu tinish belgisidan quyidagi o'rnlarda foydalaniladi:

1.Uyushiq bo'laklar orasida. Malasan, Ukam bog'da olma,uzum,anor olib keldi.

2.Undalmalar vergul bilan ajratiladi. Masalan, Salom sizga, purviqor tog'lar.

3.Kirish so'zlardan so'ng.

Masalan, Shubhasiz,bu gapingiz to'g'ri.

So'roq(?) -- bu belgi asosan mazmunidan so'roq anglashilgan gaplar oxirida qo'yiladi. So'roq belgisi asosan savolning mavjudligini yoki ma'lumot olish niyatini ko'rsatadi. So'roq belgisi jida ko'p maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Asosiy vazifasi savol yoki tushunarsizlikni ifodalash bo'lsa-da, yozuvda ohang va ma'no chuqurligini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi.

Undov -- yozma nutqda, ayniqsa, badiiy asarlarda turli xil tuyg'ular, holatlar har xil emotsionalliklarni ifodalashda undov belgisining roli katta. Undov belgisi asosan, undov va buyruq gaplar oxiriga qo'yiladi. His-hayajon (shodlik, qo'rquv, g'azab) bilan aytilgan gaplar undov gap hisoblanadi. Ulardan so'ng undov(!) belgisi qo'yiladi.

Ko'p nuqta(...) -- ketma-ket qo'yiladigan uch nuqtadan iborat. Ko'p nuqta, asosan, quyidagi o'rnlarda ishlatiladi:

1) gapning tugallanmay qolganini bildirganda: Men nima qilibman...

2) nutq jarayonida so'zlovchining to'xtalishini bildirganda: Sen...sen qo'riqqa borasan.

3) dialogda savol javobsiz qolganda:

-- Nega yig'layapsiz...

--...

Tire -- aralash holda, ya'ni gapning boshida va o'rtasida, shuningdek, yakka va takror holda qo'llanuvchi tinish belgilaridan biri hisoblanadi.

Tire yakka holda qo'llanganda gaplar va gap bo'laklarini ajratish, takror holda ishlatilganda esa ma'lum bo'laklarni chegaralash, chegaralangan bo'lakning ma'nosini ta'kidlash, emotsionallikni oshirish kabi vazifalarni bajaradi.

Nuqtali vergul (;) Bu belgi ustma-ust joylashgan nuqta va verguldan tashkil topgan, ikki unsurli tinish belgilaridan biri. Bu tinish belgi quyidagi hollarda ishlataladi:

1) gapda uyushiq bo'laklar murakkab bo'lib, ular ma'lum guruhlarga ajratilganda qo'yiladi. Bog'da shaftoli va olma; qovun va tarvuzlar pishib yotibdi.

2) yarim qavs bilan ajratilgan raqam yoki harflardan keyingi gaplar oxirida qo'llaniladi.

Qo'shtirnoq -- o'zbek tilida keng qo'llanadigan ko'p elementli, qo'shaloq holda ishlataladigan, chegaralovchi tinish belgisi hisoblanadi. Quyidagilar qo'shtirnoq ichiga olinadi:

- 1) so'z, so'z birikmasi, kinoya va ko'chirma gaplar;
- 2) badiiy asar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va boshqalarning nomlari;
- 3) zavod, korxona, fabrika, tashkilot nomlari;
- 4) mahsulot, o'simliklarning turi, mashina, samolyot, televizor kabilarning markasini bildiruvchi nomlar;
- 5) sinflar, buyruqlar, qarorlarning ayrim bandlariga qo'shilib yoziladigan harflar;
- 6) matn ichida kelgan maqollar, hikmatli so'zlar va boshqalar qo'shtirnoqqa olinadi.

Punktuatsiya asoslaridan kelib chiqib, tinish belgilari qo'llashning quyidagi asoslarini ko'rsatamiz:

1. Logik-grammatik asos. Bunga ko'ra, tinish belgilari gap mazmuni, tuzilishi va ohangi nazarda tutilgan holda, shulardan kelib chiqib qo'llaniladi. Masalan, xabar mazmunini anglatgan gapning oxirida nuqta, so'roq mazmunini anglatgan gaplarning oxirida so'roq, emotsiya (hayajon) ifodalangan gaplar oxirida undov belgilari ko'proq nutq mazmuniga asoslanib qo'yilgan bo'ladi; kiritma qurilmalarning asosiy gap bilan zich bog'langanlari qavs, sayoz, bo'sh bog'langanlari tire bilan ajratilish holatlari ko'proq nutq tuzilishga asoslanadi: "Dod!" degan ovoz eshitildi. (O.) Qalandarov jonjahdi bilan baqirdi: Yuqol!!! gaplarining birinchisidagi qo'shtirnoq nutq tuzilishiga, ikkinchisidagi undov belgilari ohangga asoslanib qo'yilgan.

2. Uslubiy asos. Bu prinsipga ko'ra, tinish belgilari nutq uslubining talabidan kelib chiqib qo'yiladi. Til taraqqiyoti, til uslublarining rivojlanishi nutqning ajralmas qismi bo'lgan punktuatsiyaning taraqqiyotiga, uning qo'llanish doirasining kengayishi yoki o'zgarishiga sabab bo'ladi. Masalan, badiiy asarlarda (dialogik nutqlarda) ixchamlilik uchun personajlarning

nutqlari tire bilan ajratiladi. Dramatik asarlarda esa nutq egalarining nomi keltirilgan-ligidan, borligidan ularni tire bilan ajratishga extiyoj bo'lmaydi yoki qo'shtirnoq havola (sitata)larda qo'yilib, badiiy asarlardagi ko'chirma gaplarda qo'llanilmaydi. Nutqning individual uslub shaklida tinish belgilari, ko'pincha, yozuvchining sub'yektiv maqsadi, emotsiyonal fikr ifodalash, uning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llaniladi. Masalan, Yoz. Quyosh hamma yoqni qizdiradi. (O.) Yoz! Pishiqlik, to'kinchilik fasli! (U.) gaplarida "yoz" so'zi orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni ifodalash uchun foydalangan. Bu maqsadlar tinish belgilari (nuqta, undov belgisi) orqali ifodalangan. G'ovur bo'lib ketdi: Xotin-qizlar zveno, brigadani udda qilolmaydim! (A.Q.) gapida ritorik so'roq bilan fikrning kuchli (emotsional) va davomli ekanligi ifodalangan. Bu maqsadlar undov belgisi va ko'p nuqta orqali ifodalangan. Lekin bundan har bir yozuvchi tinish belgilaridan o'z bilganicha, o'z istagicha foydalana beradi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Tinish belgilarining individual uslub talabiga ko'ra qo'llanilishi ham uslubiy tamoyilning umumiyligi me'yoriga bo'yasinadi.

3. Farqlovchi (differensial) asos. Bu tamoyilga ko'ra tinish belgi-lari yozuv texnikasi (shakli)ni farqlash uchun qo'llanadi. Boshqacha aytganda, tinish belgilarining yozuv shakllariga bog'liq holda odatda-gidan farqli ishlatalishi farqlovchi tamoyil asosida yuz beradi. Ilmiy uslubda, jumla ichida so'zlarni qisqartirishda iqtibos – sitatalarning manbaini ko'rsatishda, havolalarda, kitob muqovalalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko'rsatishda tinish belgilari mazkur tamoyilga asosan ishlataladi. Masalan, kitob muqovasida tire (Toshkent – 2011 kabi), havolalarda vergul (G'afur G'ulom, Tanlangan asarlar, Toshkent, 1985 kabi) qo'yiladi. Ba'zan muallif va uning asari, matbuot nomlari qisqartirilib, unda tinish belgisidan foydalilanadi: Navoiy – N.; Oybek – O.; Abdulla Qahhor – A.Q. Ko'p hollarda farmon va qarorlarda tire har bir gap oldidan qo'yilib, numerativlik vazifasini ham bajaradi, bunda ham farqlovchi tamoyilga asoslaniladi. Umuman, hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari uch tamoyil – logik-grammatik, uslubiy va farqlovchi tamoillar asosida qo'llaniladi. Bulardan logik-grammatik tamoyil yetakchi bo'lib, keyingi ikki tamoyil shunga asoslanadi – yordamchi tamoyil.

Xullas, tinish belgilarining to'g'ri va samarali ishlatalishi yozma nuqting sifatini oshiradi, matnni o'qish va tushunishni osonlashtiradi. Tinish belgilari jumlalar orasidagi aloqalarni aniq belgilaydi, fikrlarni tartibga soladi va o'quvchining diqqatini zarur joylarga qaratadi. Tinish belgilari yordamida muallif o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahriiddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. T.: "Akademnashr" 2015.
2. G'ulomov A. O'zbek tili punktuatsiyasi. T.: "O'qituvchi" 1992.
3. Shoniyozirova G. "Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasining pragmalingistik aspekti". Results of National Scientific Research International Journal 3 (1). 2024. 35-39-bet.
4. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilida punktuatsiya. Toshkent. 1995.



XALQ OG'ZAKI IJODI YORDAMIDA O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDA O'QISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.

Maxsumova Maftuna Zoirjon qizi

Navoiy davlat universiteti

Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili)

Email: maftunaxon1711@gmail.com

ANNOTATSIYA

Xalq og'zaki ijodi, jumladan, maqollar, topishmoqlar hamda ertaklar o'quvchilarda o'qish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi o'quvchilarni darslarga qiziqtirish va ularning o'qishni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli bo'lishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, xalq og'zaki ijodini ta'linda qo'llashning samaradorligi, uni o'quvchilarning madaniy va ijtimoiy ehtiyojlariga mos ravishda, malakali o'qituvchilar tomonidan taqdim etilishiga bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchining ehtiyojlarini qamrab olgan va ularning yosh xususiyatlariga mos materiallarni tanlashda e'tiborli bo'lishi zarur. Ushbu maqolada yuqorida belgilaangan maqsadlarga mos keladigan bir nechta metodlar to'g'risida ma'lumot keltiriladi.

Metodlar aniqlash borasida bir qancha muvofiq variantlar o'rganildi va tadqiqot metodikasi (namunalarni toplash, tahlil qilish va loyihalash) tanlandi. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodining o'quvchilar o'qish qobiliyatini oshirishda tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganish, uning ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi bo'yicha metodlar tavsiya etildi. Ushbu metodlar o'quvchining madaniy va ijtimoiy ehtiyojlariga mos ravishda tanlanib, o'qituvchi tomonidan samarali tarzda qo'llanilishi uchun yo'l-yo'riqlarni belgilaydi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, tadqiqot metodikasi, tahlil qilish, loyihalash.

KIRISH

Ingliz tilini o'qitishda 4 ta asosiy kompetensiya bo'lib, ulardan biri o'qishdir. O'qish insonning kognitiv qobiliyatini rivojlantirib, fikrini rivojlantiradi, til va lug'atni boyitadi. David Pearson (2009) fikriga ko'ra, o'qish ko'nikmalari chuqur anglashni o'z ichiga oladi, bunda o'quvchi matnni o'z tajribalari va fikrlari bilan bog'laydi. Pearsonning ta'kidlashicha, o'qish - bu aqliy jarayon bo'lib, unda ma'noni tushunish va matnni tahlil qilish asosiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o'qish bu faqat so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish emas, balki matndan ma'no chiqarish va uni o'quvchi bilgan narsalar bilan bog'lashdir. Bu fikrlash, eslab qolish va yangi ma'lumotlarni qo'llashni o'z ichiga olgan faoliyat (Frank Smith (1985)). O'qish - bu doimiy o'zgarish va o'zini rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot jarayonida xalq og'zaki ijodi va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish sohasida shaxsiy va guruh darajasida turli yo'nalishlar paydo bo'ldi. Xalq og'zaki ijodini ta'linda qo'llash (Mustafoev, 2015), madaniyat va tarixni o'rganish (Tursunov, 2017), o'qish va yozish ko'nikmalarini mustahkamlash (Ahmedova, 2016), va badiiy tasavvur orqali fikrlashni rivojlantirish (Muminov,

2018) kabi atamalar ilmiy tadqiqotlarning bir qismi bo'ldi. Xalq og'zaki ijodining ta'lim-tarbiyatagi o'rni yangilik emas va u o'qish malakasini oshirishga yordam beradi. Bu usullar madaniyat va tarixni o'rganish orqali o'quvchilarni qiziqtirishi, ularning so'z boyligini kengaytirish hamda o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir.

Xalq og'zaki ijodi o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini oshirishda, kitobxonlikni yanada qiziqarli, madaniy va ta'limiy qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Madaniy meros bilan aloqalarni mustahkamlash bilan birga tushunish, so'z boyligi va savodxonligini oshiradi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, yaxshi ishlab chiqilgan o'quv materiallari va mashg'ulotlar bilan birgalikda samarali bo'lishi mumkin.

Xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'quvchilarning ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi asosiy muammolardan biri o'quv dasturida qiziqarli va madaniy jihatdan mos materiallarning yetishmasligidir. Maktablarda foydalilaniladigan ko'plab o'qish materiallari juda murakkab yoki o'quvchilarning madaniy kelib chiqishi bilan aloqador emas, bu esa ularni kontekstni anglashiga qiyinchilik hosil qilishi mumkin. Bundan tashqari, talabalar ko'pincha notanish lug'at va gap tuzilmalari bilan bog'liq qiyinchilikka duch keladi. O'qituvchilar cheklangan resurslar tufayli ko'p hollarda xalq og'zaki ijodidan iborat bo'limgan odatiy bilan cheklanadi, bu esa o'quvchilarda motivatsiyaning susayishiga sabab bo'ladi. O'qish materiallari o'quvchilarning madaniy o'ziga xosligini yoki kundalik tajribasini aks ettirmaganligi sababli, ular matnlarning ma'nosini tushunish va axloqiy saboqlarni olishda qiynaladi. Natijada, ularning umumiy o'qish qobiliyati zaifligicha qolib, hikoyalarni tushunishda qiynalmoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada, 6-sinf o'quvchilari orasida ingliz tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namunalarining rolini aniqlashda namunalarni to'plash, analiz qilish va loyihalash singari metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni quyidagi ko'rinishda olib borildi:

1.Loyihalash. Bu metod interaktiv o'qish mashg'ulotlari,jumladan, hikoya qilish, muhokamaga asoslangan tushunish mashqlari va talabalarning ingliz tilini ravon o'qish qobiliyatini oshirishga qaratilgan mashqlarga urg'u beradi. O'quvchilarning dastlabki o'qish qobiliyati , qiziqishlariga qarab kerakli manbaalar ishlab chiqariladi.

2.Namunalarni to'plash. O'rganish jarayonida 6-sinf o'quvchilari uchun mos xalq og'zaki adabiyoti namunalari (ertak, maqol, topishmoqlar) to'plandi. Hikoyalarni tanlashda ularning lingvistik boyligi va ingliz tilini o'rganish bilan aloqadorligiga ahamiyat berildi. O'quvchilarning dastlabki o'qish ko'nikmalarini, jumladan so'zni tanish, so'z boyligini o'lchash va o'qishni tushunishini baholash uchun test o'tkazildi.

3.Ma'lumotlarni tahlil qilish. O'quvchilarning ingliz tilidagi o'qish ko'rsatkichlari xalq adabiyotiga asoslangan o'qish materiallaridan foydalanshidan oldin va keyin o'lchov qilindi. Xalq adabiyotining ta'siri o'quvchilarning faolligi, lug'atlarni eslab qolish, ravon gapirish va hikoyalardagi milliy qadriyatlarni qay darajada

anglashini tahlil qilish yordamida o'rganildi. So'ngra, fikr-mulohazalar kuzatishlar va talabalar so'rovnomalari orqali yig'ildi, va bu jarayon ingliz tilida o'qish motivatsiyasi va mahoratini yaxshilashga qaratildi.

NATIJALAR

Tadqiqot o'tkazilgandan so'ng natijalar solishtirildi va aniqlandiki, o'quvchilar ingliz tilida xalq og'zaki ijodi bilan tanishgandan so'ng, ularning o'qish ko'nikmasi avvalgi ko'rsatkichga nisbatan yuqori. Avvalgi natijaga ko'ra, o'quvchilarning so'zlar bilan tanishligi, so'z boyligini tushunish va o'qishni tushunishi o'rtacha 45% ball bo'lsa, tadqiqot oxirida bu ko'rsatkich 78% ga ko'tarildi, ya'ni 33% ga yaxshilandi. Bundan tashqari, o'quvchilarning xalq adabiyoti materiallariga bo'lgan qiziqishi avvalgidan ancha ko'tarildi va ularning so'z eslab qolish qobiliyati, o'qish tezligi, shu bilan birga hikoyalardagi axloqiy qadriyatlarni tushunish darajasi doimiy xalq adabiyotidan foydalanish kerak ekanligini bildirdi.

XULOSA

Xalq og'zaki ijodi orqali ingliz tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirish borasidagi tadqiqot xalq adabiyotini ta'limda qo'llashning bir qancha afzalliklarini ko'rsatib berdi. Ma'lumotlarni tahlil qilish, namunalar toplash va loyihalash kabi bo'limlarni o'z ichiga olgan metodologiya xalq og'zaki ijodi namunalari savodxonlikni oshirishda qanday kuchli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkinligini har tomonlama tushunishga yordam berdi. O'quvchilarni madaniy ahamiyatga ega bo'lgan hikoyalar bilan jalb qilish orqali nafaqat ularning o'qish qobiliyatini rivojlantiriladi, balki ularda o'zining merosiga nisbatan hurmat tuyg'usi ham uyg'onadi. Natijalarga ko'ra, o'quv dasturlariga turli xil adabiy asarlarni, xususan folklorni qo'shish juda muhim. Xalq adabiyoti o'quvchilarga o'qishni tushunishda yordam beradi, darslarni qiziqarli qiladi va har bir o'quvchining ehtiyojiga mos keladigan, barchani qamrab oladigan o'quv muhitini yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Monica, M., & Soplantila, E. (2024). The role of local folklores in students' reading comprehension. *MATAI International Journal of Language Education*, 4(2), 185–198.
- Suryani, I., Misrita, M., & Ristati, R. (2021). Folklore and It's Effect on Student's Ability in Reading Narrative Text: a Systematic Literature Review. *Indonesian Language Education and Literature*, 7(1),
- Zahra, H. T., Shahzad, W., Farooq, M. A., Ali, T., & Ain, N. U. (2024). Impact of using Folklore in ESL Classroom for teaching English reading skills in RYK. *Qlantic Journal of Social Sciences and Humanities*, 5(2), 203–211.

MATN YARATISH KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING TIL O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

Haydarova Aziza Nabijon qizi

Navoiy Davlat Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) mutaxassisligi
1-kurs magistranti

Annotatsiya. Bugungi globallashuv davrida chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa til o'rgatuvchi metodikalarni takomillashtirishni talab qiladi. Til o'rganishda yozma nutq — ya'ni matn yaratish — kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ajralib turadi. Matn yaratish kompetensiyasi til o'rganuvchining o'z fikrini mustaqil, aniq va mantiqiy tarzda ifoda etish qobiliyatini shakllantiradi. Ushbu maqolada matn yaratish kompetensiyasi tushunchasi va uning til o'rganishdagi ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: matn yaratish kompetensiyasi, yozma nutq, mantiqiy izchillik, tanqidiy fikrlash, grammatik ko'nikma, leksik bilimlar

Bugungi kunda til o'rganish jarayonida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, ayniqsa, matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Matn yaratish kompetensiyasi — bu o'rganuvchining fikrini mantiqiy, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri ifoda etish, turli janrdagi matnlarni yaratish, ularni tuzish va qayta ishlash qobiliyatidir. Bu kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, ushbu kompetensiya til o'rganishda juda muhim rol o'yinaydi, chunki u o'quvchilarga nafaqat tilni o'rganish, balki uni amalda qo'llay olish imkonini beradi.

Matn yaratish faqatgina grammatik qoidalarni bilish bilan emas, balki o'z fikrini aniq, mantiqiy va izchil tarzda ifoda etish ko'nikmasi bilan chambarchas bog'liq. Til o'rganuvchilar uchun bu ko'nikma yozma nutq orqali fikr almashish, insho, maqola, xat, referat yoki esse kabi matn turlarini mustaqil yaratish imkonini beradi. Shu boisdan ham matn yaratish kompetensiyasi til o'rganishdagi eng muhim ko'nikmalardan biri sifatida qaraladi.

Matn yaratish kompetensiyasini o'rganish va o'rgatish davomida asosiy jihatlarga inobatga olish kerak. Birinchidan, o'quvchilar grammatik qoidalari, so'z boyligi va sintaksisni yaxshi bilishi lozim. Bu bilimlar matnlarni to'g'ri va ravon yozishga yordam beradi. Ikkinchidan, matn yaratishda ijodiy yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari, yangi g'oyalar ishlab chiqishlari va o'z uslublarini rivojlantirishlari zarur. Shuningdek, har bir matnning maqsadi bo'lishi zarur — bu xabarnoma, hikoya, maqola yoki boshqa turdag'i matn bo'lishi mumkin. O'quvchilar matnni yozishda ushbu maqsadni hisobga olishlari kerak. Bundan tashqari, yozuvda matnning tuzilishi muhimdir. O'quvchilar kirish, asosiy qism va xulosa kabi qismlarni qanday joylashtirishni bilishi lozim. Xullas, o'qituvchilar tomonidan

berilgan fikr-mulohazalar orqali o'quvchilarining yozma ko'nikmalari rivojlanadi.

Ushbu mavzu doirasida maktab o'quvchilar o'rtasida tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot davomida tavsify tahlil, kuzatuv, taqqoslash va didaktik materiallar asosida tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, chet tilini o'rganayotgan o'rta bo'g'in o'quvchilarining yozma ishlariga nazariy tahlil berildi. Matn tuzishdagi asosiy muammolar, lug'at boyligi, grammatick strukturaviy aniqlik va mantiqiy izchillik kabi omillar o'rganildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyasi asosan leksik bilimlar, grammatick ko'nikmalar va matn strukturasini tushunishga asoslangan. Dastlabki yozma ishlarda o'quvchilar fikrini to'liq bayon qila olmaslik, bog'lovchi vositalarni noto'g'ri ishlatish, bir xil iboralardan takror-takror foydalanish kabi kamchiliklarga yo'l qo'yganlar. Ammo lug'atlardan samarali foydalanish, matn tahlili va qayta tuzish mashqlari orqali matnlar sifati sezilarli darajada oshgan. O'quvchilar yangi so'zlarni kontekstda qo'llashni o'rgana boshlagan va matnlar yanada izchil, grammatick to'g'ri bo'lган.

Xulosa qilib aytganda, olingen natijalar matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish til o'rganish jarayonida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Bu kompetensiya o'quvchining faqatgina til boyligini emas, balki tafakkurini, ijodiy fikrlashini va nutqiy mustaqilligini rivojlantiradi. Ayniqsa, o'quvchilarining matn tuzish jarayonida lug'atlardan maqsadli foydalanishi, sinonim va antonimlar orqali matnga boylik kiritishi ularning yozma nutqini rivojlantirishda katta samara berdi. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravon bayon qilishni o'rganadilar, bu esa kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi. Matn yaratish kompetensiyasi faqat til o'rganish emas, balki shaxsiy o'sish, muloqotga kirishish, ijtimoiy va madaniy integratsiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Yozuv jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi – o'quvchilar boshqa matnlarni tahlil qilish va baholash orqali yanada chuqurroq tushunchalarga ega bo'ladilar. Turli xil matnlar orqali madaniy kontekstlar haqida ma'lumot olish mumkin, bu esa global anglashuvni oshiradi. Shunday qilib, matn yaratish kompetensiyasi til o'rganishda nafaqat tilning asosiy elementlarini egallashga yordam beradi, balki shaxsning umumiyl rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007. – 264 b.
2. Bobojonova D.S. Matn lingvistikasi va uni o'rganish usullari. – Toshkent: O'qituvchi, 2009. – 210 b.
3. Qodirova M.X. Chet tilini o'rgatishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish. // Filologiya masalalari. – 2020. – №3. – B. 88–91.
4. Nazarova Z.S. Til o'rganishda yozma nutqni rivojlantirishning metodik asoslari. – Toshkent: TDPU, 2019.

THE SIGNIFICANCE OF EFL STUDIES IN UZBEKISTAN

Pulotova Bonu

Student of master's degree at Navoi State university, Uzbekistan
bonubahriiddinovna@gmail.com

ABSTRACT

This study aims to examine the significance of English as a Foreign Language (EFL) studies in Uzbekistan, highlighting its impact on education, career development, and globalization processes within the country. This study contributes to the existing literature on EFL education by providing a comprehensive analysis of its significance in the unique context of Uzbekistan. This study contributes to the existing literature on EFL education by providing a comprehensive analysis of its significance in the unique context of Uzbekistan.

Introduction

The global landscape of the 21st century has underscored the importance of English as a lingua franca, particularly in non-Western contexts where it plays a crucial role in shaping sociocultural and economic experiences. In Uzbekistan, a country located at the crossroads of Central Asia, the significance of English as a Foreign Language (EFL) has gained heightened prominence in recent years. Following the dissolution of the Soviet Union, Uzbekistan recognized the need for modernization and integration into the global economy, leading to a concerted effort to bolster English language education within its academic institutions and society at large. This introduction aims to contextualize the significance of EFL studies in Uzbekistan, elucidating its implications for educational policy, social mobility, and national identity.

Historically, Uzbekistan's language policy has been closely tied to national identity and cultural revival. After attaining independence in 1991, the Uzbek government began to cultivate a renewed sense of national consciousness, part of which necessitated an embrace of the Uzbek language at the expense of Russian and other minority languages. However, as globalization intensified, it became increasingly apparent that proficiency in English was essential for engaging with the broader world. Consequently, the inclusion of English within academic curricula became pivotal not only for practical purposes but also as a means of aligning with international standards (Tursunova, 2020). By prioritizing EFL studies, Uzbekistan aims to develop a citizenry capable of participating in global dialogues, thereby enhancing national development and reducing socio-economic disparities.

The integration of EFL studies into educational systems has also become emblematic of Uzbekistan's broader aspirations to modernize and reform its educational infrastructure. As the country grapples with challenges such as outdated teaching methodologies and insufficient pedagogical resources,

efforts to improve English language education serve as a barometer for overall educational reform. Investing in EFL programs fosters not only linguistic competence but also critical thinking and intercultural awareness, skills that are indispensable in today's interconnected world. As a result, policymakers have advocated for a comprehensive approach to EFL education that encompasses teacher training, modern curricula, and the incorporation of technology in language learning (Ashurova, 2021).

Beyond individual educational outcomes, the significance of EFL studies in Uzbekistan extends to broader social implications. English proficiency is increasingly viewed as a key determinant of social mobility, enabling individuals to access better employment opportunities and engage with global markets. In a country where the economy is diversifying and increasingly reliant on sectors such as tourism and information technology, the demand for English-speaking professionals has surged. Thus, EFL studies are not only a matter of academic concern but also a socio-economic imperative. Furthermore, the ambivalence surrounding globalization prompts a dual desire to preserve national culture while simultaneously embracing foreign influences. Consequently, the development of EFL studies is intricately linked to negotiations of identity and modernity, making it an area of study ripe for exploration.

While the significance of EFL studies in Uzbekistan cannot be overstated, it is essential to recognize the challenges that accompany its implementation. Issues such as inadequate training for teachers, limited access to resources, and sociocultural attitudes toward the English language continue to impede progress. The effectiveness of EFL education may vary significantly across urban and rural regions, reflecting broader disparities in educational quality and access. As such, understanding the complexities surrounding EFL studies in Uzbekistan requires a multidimensional approach that considers not only linguistic proficiency but also social, cultural, and economic factors.

Literature Review

The significance of English as a Foreign Language (EFL) studies in Uzbekistan has been increasingly acknowledged in recent years, as the nation actively seeks to enhance its global position through improved linguistic capabilities and international collaborations. The rise of English proficiency has become synonymous with modernization, social development, and economic advancement in numerous countries, and Uzbekistan is no exception. This literature review examines the scholarly discourse surrounding EFL studies in Uzbekistan, particularly as they relate to policy changes, pedagogical approaches, and sociocultural implications.

Historically, the teaching of English in Uzbekistan has evolved significantly, especially since the independence from the Soviet Union in 1991. During the Soviet era, the emphasis was primarily on Russian, with limited exposure to English. Post-independence, however, the Uzbek government recognized the

need to integrate English into the educational curriculum as a means to foster international communication and partnerships (Dzhuraev, 2019). Kadirova (2020) highlights that the inclusion of English in the educational ethos aimed not only to equip citizens with necessary language skills but also to facilitate socio-economic advancements. This transformation has been propelled by various national educational reforms which have prioritized EFL studies as a vital component of modern Uzbek education.

A critical aspect of the EFL studies in Uzbekistan is rooted in the national policy framework which directs language education. The "State Program for the Development of the Educational System" initiated in 2004 laid the groundwork for extensive curricular reforms that aimed to promote foreign language proficiency (Murodov, 2021). This program aligns with the broader educational goals of enhancing competitiveness in a rapidly globalizing world. It seeks not only to improve language proficiency but also to integrate modern teaching methodologies and materials into the learning environment. Innovations such as communicative teaching approaches and digital resources have been encouraged to enhance the effectiveness of EFL instruction (Salimova, 2020).

Furthermore, the government's initiatives to recruit and train qualified EFL teachers are essential for realizing these policy objectives. Research indicates that the ongoing professional development and international exchange programs for teachers have positively impacted the quality of English instruction in Uzbekistan (Yusupov, 2018). This investment in human capital is critical in developing a cadre of educators who can employ effective teaching strategies aligned with global best practices.

The pedagogical landscape of EFL studies in Uzbekistan reflects both advancements and challenges. As noted by Tashkentov (2022), a significant shift has been observed toward more communicative and student-centered methodologies, which have been shown to enhance student engagement and language retention. The application of task-based learning, for example, has gained traction, as educators strive to create authentic learning scenarios for students (Tashkentov, 2022).

However, challenges remain prevalent within this evolving pedagogical framework. Research conducted by Rasulov (2019) points out that material shortages, alongside a deficit in trained educators particularly in rural areas, hinder the effective implementation of modern teaching methodologies. While urban centers in Uzbekistan may enjoy better resources and training opportunities, students in rural environments often face significant barriers to language learning, perpetuating educational inequities. Moreover, as English becomes more prevalent in Uzbekistan, there is a growing recognition of the importance of English for specific purposes (ESP), particularly in fields such as business, medicine, and technology. The integration of ESP into the curriculum is viewed as an effective means of preparing students for global job markets, thereby enhancing employability (Fazilov, 2021). The alignment

of EFL studies with vocational training and higher education aims to provide students with practical skills that are applicable in an increasingly competitive environment.

In conclusion, the significance of EFL studies in Uzbekistan transcends the mere acquisition of language skills; it encompasses broader dimensions of national identity, economic development, and social integration. As Uzbekistan continues to navigate the intricacies of globalization, the importance of effective EFL policies, innovative pedagogical methodologies, and a balanced approach toward cultural identity will remain critical. Future research should focus on exploring the long-term outcomes of current EFL initiatives, particularly in terms of both student performance and the role of EFL in shaping national identity.

References

1. Dzhuraev, J. (2019). "The Evolution of English Language Teaching in Uzbekistan: A Historical Perspective." *Uzbek Language and Literature Studies* 8 (1): 12-25.
2. Fazilov, A. (2021). "English for Specific Purposes in Uzbekistan: Bridging the Gap between Education and Employment." *International Journal of Educational Research* 56 (3): 217-229.
3. Kadirova, U. (2020). "Post-Soviet Language Politics: The Role of English in Modern Uzbekistan." *Central Asian Studies* 10 (2): 89-102.
4. Khakimov, F. (2020). "Language and Identity in a Globalized World: The Case of English in Uzbekistan." *Journal of Language and Culture* 5 (4): 145-159.
5. Murodov, A. (2021). "Structural Reforms in Education: The Case of Uzbekistan's Language Policy." *Comparative Education Review* 65 (1): 21-39.
6. Rasulov, T. (2019). "Challenges in EFL Teaching: Perspectives from Rural Uzbekistan." *Asian EFL Journal* 21 (4): 234-248.
7. Salimova, N. (2020). "Innovative Teaching Approaches in EFL: An Uzbek Perspective." *Journal of Language Teaching and Research* 11 (3): 356-367.
8. Tashkentov, I. (2022). "Task-Based Language Learning in Uzbekistan: Progress and Challenges." *International Journal of Language Education* 4 (2): 113-127.

Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilari jasoratining falsafiy va dinshunoslik tahlili

Iminova Gavharoy Ilhomjon qiz

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi
gavharoyiminova190@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilarining jasorati tarixiy va falsafiy kontekstda tahlil qilinadi. Xususan, ularning ruhiy barqarorligi, insoniy qadriyatları va dinshunoslik nuqtai nazaridan jasoratning ma'nosi chuqur o'rganiladi. Maqolada jasoratning ijtimoiy, axloqiy va diniy asoslari ilmiy nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Ikkinchiji jahon urushi, jasorat, falsafa, dinshunoslik, insoniyat tarixidagi halokatli voqealar, O'zbekistonlik qahramonlar, axloqiy fazilat, ruhiy barqarorlik, vatanparvarlik, din va e'tiqod, ma'naviy kuch, fidoyilik, sabr-toqat, falsafiy yondashuv, ijtimoiy-axloqiy asoslar, Qur'on va hadislar, vatan himoyasi, o'zbek xalqining jasorati.

Аннотация: В данной статье анализируется храбрость участников Второй мировой войны в историческом и философском контексте. В частности, исследуется значение храбрости с точки зрения их духовной устойчивости, человеческих ценностей и религиоведения. В статье научно-теоретически рассматриваются социальные, этические и религиозные основы храбрости.

Ключевые слова: Вторая мировая война, доблесть, философия, религиоведение, катастрофические события в истории человечества, герои Узбекистана, моральные добродетели, духовная устойчивость, патриотизм, религия и вера, духовная сила, самопожертвование, терпение, философский подход, социально-моральные основы, Коран и хадисы, защита Родины, доблесть узбекского народа.

Abstract: This article analyzes the bravery of World War II participants in historical and philosophical contexts. Specifically, the meaning of bravery is deeply explored in terms of their spiritual stability, human values, and the perspective of religious studies. The article scientifically and theoretically examines the social, ethical, and religious foundations of bravery.

Keywords: World War II, courage, philosophy, religious studies, catastrophic events in human history, heroes of Uzbekistan, moral virtues, spiritual stability, patriotism, religion and faith, spiritual strength, self-sacrifice, patience, philosophical approach, socio-ethical foundations, Quran and hadiths, defense of the homeland, courage of the Uzbek people.

Kirish. Insoniyat tarixidagi eng dahshatli va halokatli voqealardan biri bo'lgan Ikkinchiji jahon urushi (1939–1945) nafaqat siyosiy va harbiy jihatdan, balki ijtimoiy-axloqiy va madaniy nuqtai nazaridan ham chuqur iz qoldirgan. Bu urushda millionlab insonlar hayotdan ko'z yumdi, millionlab odamlar esa hayot-mamot yoqasida o'z jasorati, fidoyiligi va vatanparvarligi bilan tarix

sahifasida o'chmas iz qoldirdilar. Ayniqsa, sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan O'zbekiston xalqi ham bu urushda jonbozlik bilan ishtirok etib, ko'plab qahramonlarni yetishtirdi.Ushbu maqolada Ikkinci jahon urushi qatnashchilarining jasorati ilmiy-nazariy asosda, xususan, dinshunoslik yondashuvi orqali chuqur tahlil qilinadi. Jasorat tushunchasining mohiyati, uning falsafiy va diniy ildizlari o'rganiladi. Falsafada jasorat — axloqiy fazilat sifatida qaralgan bo'lsa, dinlarda u ko'proq ruhiy qudrat, sabr-toqat,adolat va e'tiqod bilan chambarchas bog'liq holda talqin etiladi.Tadqiqotning asosiy maqsadi — Ikkinci jahon urushi qatnashchilari jasoratining tarixiy misollarini tahlil qilish bilan birga, bu jasoratning axloqiy-diniy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishdan iborat. Maqolada quyidagi savollarga javob izlanadi: jasoratning mohiyati nima? Uning tarixiy, falsafiy va diniy asoslari qanday? Urush qatnashchilarining jasorati qanday sharoitda shakllandi va qanday ruhiy manbalarga tayandi?Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi yosh avlod uchun tarixiy xotira va ma'nnaviy tarbiya masalalari juda muhim sanaladi. Jasorat — bu faqat urush maydonida ko'rsatiladigan harakat emas, balki irodaviy, axloqiy va e'tiqodiy fazilatdir. Shu boisdan bu masalani chuqur ilmiy tahlil qilish — bugungi jamiyatning ma'nnaviy asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Ikkinci jahon urushi insoniyat tarixidagi eng keng ko'lamli va halokatli urush bo'lib, 1939-yil 1-sentabrda Germaniyaning Polshaga bostirib kirishi bilan boshlangan va 1945-yil 2-sentabrda nihoyasiga yetgan. Bu urushda 60 dan ortiq davlat ishtirok etgan bo'lsa, jami 100 milliondan ortiq inson harbiy xizmatga jalb qilingan. Urush natijasida 70 milliondan ortiq odam halok bo'ldi yoki bedarak ketdi.Sobiq Sovet Ittifoqining fashistik Germaniyaga qarshi kurashdagi roli beqiyos bo'lib, bu frontda 27 milliondan ortiq sovet fuqarosi qurban bo'lgan. O'zbekiston ham bu muhim tarixiy jarayondan chetda qolmagan: urushga 1,5 millionga yaqin o'zbekistonlik jalb qilingan, ularning 500 ming nafari urushda halok bo'lgan yoki bedarak yo'qolgan. Bu raqamlar o'zbek xalqining bu urushdagi fidoyiligi va qahramonligini yaqqol ko'rsatib turibdi.O'zbekistonlik askarlar faqat jangovar harakatlarda emas, balki urush orqasidagi mehnat frontida ham ulkan jasorat ko'rsatdilar. Ayollar, bolalar va keksa avlod vakillari yurt ichkarisida armiyani oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zaruriy resurslar bilan ta'minlashda o'z hayotini fido qildilar. Bu jasorat nafaqat harbiy, balki axloqiy va ma'nnaviy jasorat edi.Ayniqsa, Ikkinci jahon urushida ishtirok etgan mashhur o'zbekistonlik qahramonlar orasida G'afur G'ulom, Zebo G'anieva, Sobir Rahimov, Turg'un Po'latov kabi insonlar alohida o'rinn tutadi. Ularning hayoti, qilgan ishlari va ko'rsatgan jasorati bugungi avlod uchun ma'nnaviy ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.Shu bois, tarixiy kontekstda jasorat tushunchasini tahlil qilish, bu fazilat qanday tarixiy sharoitlarda namoyon bo'lganini ko'rsatish — kelgusidagi falsafiy va diniy tahlillar uchun mustahkam asos yaratadi. Jasorat — insonning eng oliy axloqiy fazilatlaridan biri bo'lib, u har doim falsafa tarixida muhim mavzulardan biri sifatida ko'rib

kelingan. Qadimgi yunon falsafasidan boshlab zamonaviy axloqiy falsafagacha bo'lgan jarayonda jasorat inson irodasining kuchi, axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati va xavf-xatarga duch kelganda insoniylikni saqlab qolish sifatida talqin qilinadi. Platon o'zining "Davlat" asarida jasoratni asosiy to'rt fazilatdan biri deb ta'riflagan. Unga ko'ra, jasorat — bu insonning qalbiy holatidir, ya'ni ruhiy barqarorlik va haqiqatni himoya qilishda qat'iyat ko'rsatishdir. Platon fikricha, jasoratli inson adolat yo'lida harakat qiladi, hatto bu yo'lida o'z hayotini xavf ostiga qo'yishi ham mumkin. Aristotel esa "Nikomax axloqi" asarida jasoratni "oltin o'rtalik" sifatida tushuntiradi. U jasoratni qo'rkoqlik va haddan tashqari jur'at orasidagi o'rta yo'l deb hisoblagan. Jasorat bu — haqiqat va adolat uchun xavfga borish, lekin bu xavfni ongli ravishda baholab qilishdir. Aristotelga ko'ra, haqiqiy jasorat bilim va donolik bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Abu Nasr Forobiy esa jasoratni axloqiy va ijtimoiy fazilat sifatida qaraydi. U jasoratni "ideal jamiyat"ni barpo etishda zaruriy fazilatlardan biri sifatida belgilagan. Forobiy fikricha, jasorat insonning nafaqat jismoniy kuchiga, balki ruhiy yetukligiga, sabr-toqatiga bog'liqdir. Jasoratli inson — bu jamiyat oldidagi burchini anglaydigan, adolatni ustuvor qo'yadigan shaxsdir. Zamonaviy falsafiy yondashuvlarda esa jasorat ko'proq eksistensial (borliq) darajada talqin qilinadi. Masalan, J.-P. Sartr yoki A. Kamyu kabi faylasuflar insonning erki, tanlovi va hayotdagi mas'uliyatiga urg'u berishadi. Ularning fikricha, jasorat — bu insonning haqiqatni tan olishga va uni himoya qilishga bo'lgan ruhiy jur'ati, hayotning ma'nosizligiga qaramay harakat qilishdir. Ushbu nazariyalar shuni ko'rsatadiki, jasorat — bu nafaqat jismoniy harakat, balki chuqur axloqiy tanlovdir. Ikkinchи jahon urushi qatnashchilarining jasorati ham aynan ana shunday falsafiy assoslarga ega bo'lib, ularning ichki dunyosi, e'tiqodi va axloqiy me'yordi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Jasorat faqat dunyoviy qarashlar bilan emas, balki diniy e'tiqod va ma'naviy mezonlar bilan ham bog'liq bo'lgan fazilatdir. Ko'pgina dinlarda jasorat insonning ruhiy barqarorligi, imonidagi mustahkamligi va yovuzlikka qarshi turishga bo'lgan tayyorgarligi sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, islom dinida jasorat — faqat jang maydonidagi qahramonlik emas, balki adolat, sabr, toqat va Alloh yo'lida xizmat qilishning bir ko'rinishi sifatida tushuniladi. Qur'oni Karimda jasoratga bevosita oid ko'plab oyatlar mavjud. Misol uchun, Baqara surasi, 249-oyatda Tolut va uning askarlari haqidagi rivoyatda Allohga tavakkul qilganlar va jasorat bilan dushmanga qarshi chiqqanlar g'alaba qozonganlari ta'kidlanadi: "Allohning roziligi yo'lida jang qilganlar: 'Alloh biz bilan birgadir', — deb dushmanga qarshi chiqishdi. Va Alloh kuchli sabr qiluvchilar bilan birgadir." Anfal surasi, 60-oyatda esa musulmonlarga o'zlarini himoya qilishga va zaruriy tayyorgarlik ko'rishga buyuriladi. Bu ham jasoratning diniy asosini ko'rsatadi — ya'ni, jasorat imon va tayyorgarlik bilan birga bo'lishi kerak. Hadislarda ham jasorat, ayniqsa, haqiqatni gapirishdan qo'rmaslik, zulmga qarshi chiqish, haq yo'lida turish kabi ma'naviy jihatlari bilan ko'p marotaba tilga olingan. Rasululloh (s.a.v) aytganlar: "Eng afzal jihod — zolim

sulton oldida haqiqatni gapirishdir." (Abu Dovud rivoyati) Bu hadis jasoratni faqat qurol bilan emas, balki haqiqatni himoya qilishda namoyon bo'ladigan ruhiy kuch deb ko'rsatadi. Nasroniylikda ham jasorat muhim axloqiy fazilat sifatida e'tirof etilgan. Iso Masihning ta'limotida jasorat — muhabbat, kechirimlilik va sabr-toqat bilan uyg'unlashgan ruhiy qudratdir. Masihiylikda jasorat ko'pincha o'zini fido qilish, zaiflarni himoya qilish va haqiqat yo'lida azob chekishga tayyorlik orqali namoyon bo'ladi. Xristian tarixidagi muqaddas shahidlar (martirlar) hayoti buning yaqqol misolidir. Ular e'tiqodlari yo'lida o'z jonlarini fido qilganlar, bu esa diniy jasoratning eng yuksak namunasidir. Umuman olganda, din jasoratni tashqi harakatdan ko'ra ichki ruhiy barqarorlik sifatida tushuntiradi. Urush qatnashchilari orasida chuqur e'tiqodga ega bo'lganlar ko'pincha qiyin holatlarda ham sabr va chidam bilan bardavom bo'lgan, dushmaniga qarshi turishdan qo'rwmagan. Bu — jasoratning imon bilan bog'liq jihatini tasdiqlaydi. Ikkinci jahon urushi O'zbekiston xalqi uchun faqat ulkan yo'qotishlar va qiyinchiliklar bilan to'la emas, balki buyuk jasorat va fidoyilik tarixidir. O'zbekistonlik askarlar va sivil ishchilar urush maydonida va orqasida ko'rsatgan jasoratlari bilan bugungi avlod uchun ibrat manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning qahramonligi faqat jismoniy jasorat bilan emas, balki ma'naviy va ruhiy kuch bilan ham bog'liqidir. G'afur G'ulom — o'zbekistonlik taniqli shoir, adib va urush qatnashchisi bo'lib, Ikkinci jahon urushida o'zining jasorati va fidoyiligi bilan mashhurdir. U urushga ketayotgan paytida shoir sifatida ham faoliyat yuritgan, va urushni tasvirlovchi ko'plab asarlar yaratgan. G'ulomning jasorati faqat jang maydonida emas, balki urushdagi insonlarning ruhiy holatini aks ettirishda namoyon bo'lgan. U frontdagi harbiy xizmatdan so'ng, o'zining "Urush" nomli she'rini yozgan va bu she'r xalqni tinchlik va adolat uchun kurashishga undagan. Zebo G'anieva — o'zining jasorati va fidoyiligi bilan taniqli bo'lgan o'zbekistonlik ayol qahramondir. Urush davrida, ayollar faqat uy-ro'zg'or ishlarida emas, balki front orqasida ham faol ishtirok etgan. Zebo G'anieva frontdagi askarlarga oziq-ovqat va tibbiy yordam yetkazishda, shuningdek, jangovar tayyorgarlikda muhim rol o'yanagan. Uning jasorati, ayol sifatida urushda ishtirok etgan. O'zining vatanga bo'lgan fidoyiligi bilan Sobir Rahimov — Ikkinci jahon urushida jangovar kashfiyotchi va jangchi sifatida alohida ajralib turadi. U frontda jang olib borgan va ko'plab dushmanlardan yengilmagan. Uning jasorati va fidoyiligi butun o'zbekistonliklar uchun namunadir. Sobir Rahimovning jasorati faqat jang maydonidagi qahramonligi bilan emas, balki uning samimiyyati, o'z e'tiqodiga bo'lgan sadoqati va o'z vatanini himoya qilishdagi ishtiyoqi bilan ham ajralib turadi. Turg'un Po'latov — o'zbekistonlik boshqa bir qahramon, Ikkinci jahon urushida ko'rsatgan jasorati bilan tarixga kirgan. Uning qahramonligi faqat jang maydonidagi jasorat bilan cheklanmaydi. Po'latov o'zining ruhiy kuchi, sabr-toqat va e'tiqodiga tayangan holda, frontda yurish paytida o'z askarlariga ruhiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatgan va doimo o'zining vatanparvarlik tuyg'ularini oshirib borgan. Turg'un Po'latovning hayoti va harakati jasoratning faqat jismoniy

emas, balki ruhiy jihatidan ham muhimligini ko'rsatadi.Ushbu qahramonlarning hayoti, ularning jasorati faqat jangovar kurashlar bilan cheklanmaydi. Ularning jasorati ruhiy kuch, irodaning mustahkamligi va dinning ma'naviy asoslaridan nasihat olishda ko'rindi. Ikkinci jahon urushi qatnashchilari o'z e'tiqodi, ma'naviy kuchi va diniy sabri bilan juda ko'plab qiyinchiliklarni yenggan. Bu jihatlar bugungi kunda yosh avlod uchun muhim saboq bo'lishi kerak.

Xulosa. Ikkinci jahon urushi nafaqat insoniyat tarixidagi eng dahshatlari va halokatli voqealardan biri bo'ldi, balki undan keyin qolgan xalq xotirasi, ma'naviy kuchi va jasoratining o'chmas izlarini ham o'tkazdi. Bu urushda ishtirok etgan har bir inson o'zining jasorati, fidoyiligi va sabr-toqati bilan tarixda o'z nomini qoldirdi. Ikkinci jahon urushi qatnashchilari, xususan, o'zbekistonlik jangchilar va sivil ishchilar o'zlarining jasoratlari bilan nafaqat jang maydonida, balki urush orqasida ham mamlakatni mustahkamlashda ulkan rol o'ynadilar.Jasoratning ilmiy-nazariy tahlili ko'rsatdiki, bu fazilat faqat jismoniy kuch bilan bog'liq bo'lmay, balki axloqiy, ma'naviy va diniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Falsafiy yondashuvda jasorat axloqiy fazilat sifatida qaralgan bo'lsa, dinshunoslik yondashuvda bu fazilat Allohnинг yo'lida sabr va e'tiqod bilan harakat qilish sifatida talqin qilinadi. Qur'on va hadislari, shuningdek, nasroniylikda jasoratning ruhiy va ma'naviy jihatlari ta'kidlanadi, bu esa bizga bu fazilatni faqat jangovar kurashda emas, balki har bir odamning ruhiy salohiyatida ko'rishga imkon beradi.O'zbekistonlik qahramonlar, masalan, G'afur G'ulom, Zebo G'anieva, Sobir Rahimov va Turg'un Po'latovlarning hayoti va jasoratlari nafaqat urushning tarixiy jihatlarini, balki insoniyatning ma'naviy kuchi va sabr-toqatini ham namoyon etadi. Ularning har biri o'z yurtini himoya qilishda faqat jismoniy emas, balki ichki ruhiy kuchni ham ko'rsatdi. Ularning qahramonligi bugungi avlod uchun muhim ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi kerak.Shunday qilib, Ikkinci jahon urushi qatnashchilarining jasorati ilmiy, falsafiy va diniy nuqtai nazardan tahlil qilinishi kerak. Ularning fidoyiligi va jasorati bugungi kunda bizga nafaqat tarixiy xotira sifatida, balki ma'naviy va axloqiy rivojlanish yo'lida o'zimizni qanday tutishimizni ko'rsatadigan ibrat sifatida xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Qur'on Karim**, tarjima va tushuntirishlar. Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2005.
2. G'ulom, G. (1983). *Urush*. Toshkent: Yangi nashr.
3. Rasululloh (s.a.v). (2006). *Hadislari to'plami*. Toshkent: "Nashr" nashriyoti.
4. Aristotel. (2009). *Nikomax axloqi*. Toshkent: "Nodir", 2009.
5. Platon. (1990). *Davlat*. Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti.
6. Forobiy, A. (1997). *Falsafiy qarashlar va axloqiy prinsiplar*. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.

7. Sartr, J.-P. (1976). *Eksistensializm va humanizm*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
8. Kamyu, A. (1962). *Begona*. Toshkent: "Yangi nashr".
9. **O'zbekiston Respublikasi Tarixi**, 4-jild. Toshkent: O'zbekiston xalq ta'limi nashriyoti, 2014.
10. Po'latov, T. (2002). *Urush qahramonlari hayoti*. Toshkent: "Ma'rifat" nashriyoti.



MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	ПРИМЕНЕНИЕ ЛИНЕЙНОЙ АЛГЕБРЫ В БИОЛОГИИ Бахриддина Азиза	4
2.	KULOLCHILIK-MILLIY MADANIYAT KO'ZGUSI OBULOVA MAFTUNAOY OBID QIZI	8
3.	Badiiy adabiyotda sevgi maktublari Murotova Ismigul Bobomirzayevna	10
4.	O'ZBEKISTON HUNARMANDLAR UYUSHMASINING KASHTACHILIKDAGI O'RNI: "BUXORO VA SHAHRISABZ KASHTACHILIK SAN'ATI MISOLIDA" Bokiyeva Guzal Ilhom qizi	14
5.	YOSHLAR INNOVATSION RIVOJLANISHINING IJTIMOIY TAHLILI Xo'jayeva Gulshoda Jalilovna	19
6.	PSIXOLOGIK DESPOTIZM VA UNING ASOSIY BELGILARI. Hoshimova Lolaxon Axmed qizi	23
7.	BEHBUDIYNING MAORIF SOHASIDAGI ISLOHOTLARI Jalilova Zahro Komil qizi	28
8.	YOSHLAR TARBIYASIDA BOBUR MEROSINING O'RNI Ismoilova Farangiz Alisher qizi	33
9.	IBN SINO ASARLARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINING TARG'IB QILINISHI Zokirova Farangiz Botirovna	37
10.	Ma'lumotlarni tahlil qilishda Relyatsion hisoblash usuli Tojimatov Isroiljon Nurmatovich Mo'ydinova Asalxon Qodirjon qizi	41
11.	ATMOSFERA HAVOSIGA CHIQUVCHI TURLI ZAHARLI GAZLAR MIQDORINI KAMAYTIRISHDA BARQAROR TRANSPORT TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI Nasirov Ilhom Zakirovich Nurdinov Murodali Alijonovich Mamirov Lochinbek Islombek o'g'li	47
12.	Korxonalarining taskiliy tuzilmalari va ularning logistika tomonidan boshqarilish xizmatlari Nasirov Ilxam Zakirovich Yuldashev Abbosbek Rustamjon o'g'li Xurillayev MuhammadUmar Ismoiljon o'g'li Abduraximov Abdug'ani Abduraxmon o'g'li	51

13.	ABDULLA AVLONIY QOLDIRGAN BOY ADABIY MEROS Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi	55
14.	TASVIRIY SAN'AT FANINI TALABALARGA O'QITISHDA KREATIV METODLAR Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi	61
15.	Alisher Navoiy asarlarida an'anaviy obrazlar Luptillayeva Mushtariy	66
16.	O'zbek tilida tinish belgilarining ahamiyati va prasodik xususiyatlari Akramova Nigina	69
17.	XALQ OG'ZAKI IJODI YORDAMIDA O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDA O'QISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH. Maxsumova Maftuna Zoirjon qizi	74
18.	MATN YARATISH KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING TIL O'RGANISHDAGI AHAMIYATI Haydarova Aziza Nabijon qizi	77
19.	THE SIGNIFICANCE OF EFL STUDIES IN UZBEKISTAN Pulotova Bonu	79
20.	Ikkinci jahon urushi qatnashchilari jasoratining falsafiy va dinshunoslik tahlili Iminova Gavharoy Ilhomjon qiz	83

INNOVATIVE
WORLD